

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish fakulteti

“Himoyaga tavsiya
etilsin”

Fakultet dekani

f.f., B. Abdushukurov

“___” - _____ 2018-y.

5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta’lim yo‘nalishi IV kurs 402-guruh talabasi
Sayfullayeva Gulilolaning “Uvaysiy hayoti va ijodini o‘rganishda interfaol metodlarning o‘rni”
mavzusida yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

F.f.n. T. Matyoqubova,

“O‘zbek adabiyotini

o‘qitish

metodikasi” kafedrası

o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

_____ F.f.d.prof Z. Mirzayeva

“O‘zbek tili va uni o‘qitish metodikasi” kafedrası

mudiri,

G.Hamidova

TDIU akademik litsey qoshidagi ona tili va adabiyot

o‘qituvchisi

“Himoyaga tavsiya etilsin”

“O‘zbek tili va uni o‘qitish metodikasi” kafedrası mudiri,

_____ F.f.d.prof Z. Mirzayeva

“___” _____ 2018

TOSHKENT – 2018

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. UVAYSIY HAYOTI VA IJODINI O‘RGANISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	
1.1. Maktab akademik litseyda shoira hayoti va ijodini o‘rganish.....	7
1.2. Uvaysiy g‘azallarini tahlil qilish.....	24
II BOB. UVAYSIY HAYOTI VA IJODINI O‘RGANISHDA INTERFAOL METODLAR.....	
2.1 Shoira lirik qahramoni ruhiy kichinmalarini o‘rganish.....	32
2.2 Uvaysiy g‘azallarida qo‘llanilgan badiiy san’atlarni o‘rganish usullari.....	45
III BOB. ISHNING AMALIYOTGA TATBIQI	
3.1 Tajriba sinov matiriallari.....	57
3.2 Ochiq dars ishlanmasi.....	73
XULOSA.....	75
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	77

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Insonning tafakkuri qanchalik mustaqil bo'lsa, u shunchalik tashabbuskor bo'ladi. Odamning fikrlashi qancha erkin bo'lsa, u shuncha izlanuvchan, ijodkor bo'ladi. Shakllanib kelayotgan shaxs oilada kattalar, maktabda o'qituvchilar hokimligidan qutulsa, uning ruhiy, aqliy, jismoniy imkoniyatlariga qarab ish tutilsa, bolada o'z xatti-harakati uchun javobgarlik hissi paydo bo'ladi. U o'z fikri, qarashiga ega bo'ladi. Fikr kishisi hamisha o'z qarashlarini asoslaydi, kerak bo'lganda himoya qiladi. Shuning uchun yurtimizda mustaqil fikrlovchi shaxslardan iborat barkamol avlod tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda ta'lim tarbiya bo'yicha qabul qilingan umummilliy dasturning hayotga tadbiiq etilishi samarasi o'laroq, yoshlarimiz Vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo'lgan, bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchiga aylanib bormoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoev: *“Biz yoshlarga oid davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz.*

Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” degan edilar¹. Shubhasiz, yosh avlodning zamon talablariga munosib, mustaqil fikr-qarashiga ega, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyat sohibi va dunyoning har bir burjidagi tengdoshi bilan erkin muloqotga kirisha oladigan shaxs bo'lib kamol topishida adabiyot va san'atning roli beqiyosdir.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida mumtoz ijodkorlar asarlarini yangicha usullar asosida o'qitish bugungi kunda muhimdir. BMIda Uvaysiy hayoti va ijodini

¹ Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Xalq so'zi. // 2016 yil 16 dekabr.

o'rganishda interfaol metodlarning o'zni masalasining ilk bora tadqiq etilishi mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublika davriy matbuotida ta'lim amaliyotida badiiy asar qahramonlarini tanqidiy baholash muayyan darajada o'rganilgan.

Ma'naviy barkamol inson tarbiyasi haqida fikr yuritgan Imom al-Buxoriy, Imom Termiziy, Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Mahmud Qoshg'ariy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy va boshqa allomalarning qarashlarida ham yoshlarni mustaqil fikrlashga o'rgatish masalasiga u yoki bu darajada e'tibor qaratilgan. Qur'oni Karim va muborak hadislarda ham odam ma'naviy kamolotini ta'minlashga doir qarashlar ustuvorlik qiladi.

Adabiyot o'qitish metodikasi sohasida badiiy asar qahramonlarini tanqidiy baholashga oid ishlar nisbatan kam bajarilgan. Bu masala ayrim metodist olimlarimizning ilmiy tadqiqotlarida muayyan darajada o'rganilgan. Pedagogika fanlari doktori, professorlar: Q.Yo'ldoshev², S.Matjonov³, B.To'xliiev⁴, M.Mirqosimova⁵, R.Niyozmetova⁶, Q.Husanboeva⁷ singari qator olimlarning tadqiqotlarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga bilan bir qatorda badiiy asar qahramonlarini baholashga oid fikrlar mavjud. Ular o'z ishlarida inson ma'naviyatini shakllantirishning psixologik-pedagogik yo'llari, ta'lim-tarbiya samaradorligini orttirishda adabiy tahlil usullari masalasiga u yoki bu darajada to'xtalganlar.

Ishning maqsadi. Uvaysiy hayoti va ijodini o'rganishda interfaol metodlarning o'zini tadqiq etishdan iboratdir.

² Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. –T.: O'qituvchi, 1996.

³ Matjonov S. Kitob o'qishni bilasizmi? –T.: O'qituvchi, 1993.

⁴ To'xliiev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2006.

⁵ Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. Monografiya. – T.: Fan, 2006.

⁶ Niyozmetova R. Uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek adabiyotini o'rganish metodikasi. Monografiya. – T.: Fan, 2007

⁷ Husanboeva Q. Adabiy ta'limda mustaqil fikrlashga o'rgatish asoslari. –T.: O'zinkomtsentr, 2003.

BMIning vazifalari. Ishning maqsadidan kelib chiqqan holda BMIning vazifalari quyidagicha belgilandi:

- Maktab akademik litseyda shoira hayoti va ijodini o‘rganish

Uvaysiy g‘azallarini tahlil qilish usullari haqida fikr yuritish:

Shoira lirik qahramoni ruhiy kichinmalarini o‘rganishni yoritish;

Uvaysiy g‘azallarida qo‘llanilgan badiiy san’atlarni o‘rganish usullari va boshqalar.

Tadqiqotning obekti. Ishimiz uchun uzluksiz ta’lim tizimidagi darslik va majmualar obekt vazifasini bajardi.

BMIning metodologik asosini Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoevning ma’naviyat, adabiyot va san’atga oid qarashlari tashkil etadi. Shuningdek, o‘zbek adabiyotshunos va metodist olimlaridan I.Sultonov, O.Sharafiddinov, U.Normatov, B.Nazarov, B.To‘xliiev, M.Mirqosimova, Q.Yo‘ldoshev, R.Niyozmetova va boshqalarning ilmiy-nazariy, metodik qarashlari ishimizni amalga oshirishda metodologik asos vazifasini o‘tadi.

Tadqiqotning metodi. Mavzuni yoritish jarayonida tadqiqotda qiyosiy-tipologik va tarixiy-qiyosiy usullardan bilan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. BMIda quyidagi ilmiy-metodik muammolar o‘z yechimini topdi:

Uzluksiz ta’lim tizimida Uvaysiy asarlarini tadqiq etish usullari o‘rganildi. - Maktab akademik litseyda shoira hayoti va ijodini o‘rganish masalasi yoritildi. Uvaysiy g‘azallarini tahlil qilish usullari haqida fikr yuritildi. Shoira lirik qahramoni ruhiy kichinmalarini o‘rganildi. Uvaysiy g‘azallarida qo‘llanilgan badiiy san’atlarni o‘rganish usullari tadqiq etildi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Ushbu izlanishlarimiz nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga egadir. Tadqiqot mobaynida olib borilgan kuzatishlar, BMIda bayon etilgan ilmiy-nazariy xulosalardan oliy o‘quv yurtlarining talabalari, o‘rta maxsus ta’lim tizimi uchun maxsus kurslar va

seminarlarda foydalanish mumkin. Shuningdek, tadqiqot XX asr milliy adabiyot tarixi, yangi davr o‘zbek she’riyati rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning tarkibiy tuzilishi. Ishimiz tarkibiy tuzilishiga ko‘ra kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

I BOB. UVAYSIYNING HAYOTI VA IJODINI O‘RGANISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

1.1. Maktab, akademik litseyda shoira hayoti va ijodini o‘rganish
Mustaqillik davrdan boshlab yurtimizda ta‘lim tarbiyaga katta e‘tibor berilib kelmoqda.

Mumtoz adabiyotimizni puxta o‘rgatish, buyuk san‘atkorlarimiz hayoti, shaxsiyati, asarlarini talabalar, o‘quvchilar qalbiga singdirishning ahamiyati bugungi kunda yanada yorqinroq namoyon bo‘lmoqda.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so‘ng mumtoz adabiyotimiz, uning ayrim vakillari merosiga munosabat ham o‘zgardi. Adabiy asarlarni tahlil qilishdagi bir yoqlamalikka barham berildi. Uzoq yillar davomida asarlari chop etilmagan, merosi yetarlicha tadqiq etilmagan Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg‘oniy, Rabg‘uziy, Husayniy, Feruz, Amiriy kabi shoirlarimiz kitoblari xalqqa etkazildi.⁸ Ularga doir ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Tasavvuf, o‘zbek tasavvuf adabiyoti haqida qator ishlar qilindi. Ma‘lumki, sobiq sho‘rolar davrida mumtoz adabiyotimiz namunalari, uning ijodkorlarini «xalqchil adabiyot» yoki «progressiv adabiyot», «diniy - mistik adabiyot», «feodal-saroy (klerikal) adabiyot» yoki «reaktsion adabiyot» vakillari sifatida ajratish tamoyillari bor edi. Buni o‘sha davr mafkurasi, qarashlari bilan bog‘lash mumkin. Ammo bugungi kunda badiiy adabiyotni bu tarzda ajratish, bir yoqlama yondashish noo‘rin ekanligi seziladi. Bu kabi davr mafkurasi o‘z ta‘sirini o‘tkazgan, zamonasozlik qilishga majbur bo‘lingan bir paytda oliy o‘quv yurtlari yoki o‘rta maktab uchun chiqarilgan darsliklarda ana shunday kamchiliklar o‘z ifodasini topdi.

Bugungi kunda ma'naviyat, milliy istiqloq g‘oyasi haqida ko‘p gapirsak ham oz. O‘zbek mumtoz adabiyotining ham bu boradagi o‘rni beqiyos ekanligini ta'kidlashimiz mumkin. Oliy o‘quv yurti talabalar uchun istiqloqdan so‘ng o‘zbek mumtoz adabiyoti bo‘yicha haligacha darslik yaratilgani yo‘q. Uzoq yillardan buyon professor N.Mallaevning «O‘zbek adabiyoti tarixi», akademik V.Abdullaev

⁸ Barkamol avlod orzusi. –T.: Sharq, 1998. – B.33

va professor F.Karimovlarning darsliklari, shuningdek, «O‘zbek adabiyoti tarixi» (5 tomlik)dan foydalanib kelindi. Bu darsliklarda zamonasozlik qilishga majbur bo‘lingan, sho‘rolar davri g‘oyalari ifodalangan jihatlar anchagina. Shu sabab o‘zbek mumtoz adabiyotini o‘qitish borasida bir qator qiyinchiliklar, ikkilanish va noaniqliklar yuzaga kelmoqda. O‘quv dasturi, mavjud darsliklar asos qilib olindi. Ular yangilanib, to‘ldirildi.

Umum ta’lim maktablarining 7-sinf adabiyot dasturida 68 soat ajratilgan. Shu sinfga Uvaysiy hayoti va ijodini o‘rganishga 2 soat mo‘ljallangan.⁹

Ta’limning turli bosqichlari bo‘lib, mumtoz adabiyotni o‘rganish uchun saralab olingan asarlarga qo‘yiladigan asosiy mezonlar sifatida ularning yuksak badiiylilik, insonparvarlik, yo‘nalishida rivojlantirish o‘quvchi shaxsining yosh xususiyatlarini e’tiborga olgan holda ularga o‘rgatish lozim. Mumtoz adabiyotni o‘rgatishda davrlarga ham e’tibor beriladi. XX asr boshlarida Qo‘qon yurtimizdagi madaniy-adabiy markazlardan biri bo‘lib kelgan, bu davrda shahar va uning atrofidan ko‘plab taniqli shoirlar yetishib chiqdi. Ularning ijodi mumtoz adabiyotining yorqin sahifasini tashkil qiladi. Ana shu iste’dodlar egasi shoir va shoiralarni lirik she’rlari, hajviy asarlari bilan o‘z davrida e’tibor topgan bo‘lib hozirgi kunda maktab o‘quvchilariga va akademik litsey o‘quvchilariga o‘rgatilib kelmoqda.

Hozirgi kunda umumiy o‘rta ta’limning 5-9-sinflaridagi o‘quvchilariga milliy adabiyotning, shuningdek, jahon adabiyotining eng sara namunalari o‘rgatilmoqda. Bundan tashqari o‘qish va tahlil qilish asosida ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, go‘zallik haqidagi xilma-xil talqinlarga duch kelishadi, ularga ongli va jonli munosabat bildirishimiz mumkun. Shular asosida o‘zlaridagi axloqiy – ma’naviy fazilatlar majmunining shakllanishi va rivojlanishiga imkoniyatlar yaradi. Hozirda turli davr mamlakatlarda, turlicha dunyoqarash va e’tiqodlarni aks ettirgan. O‘quvchilarni badiiy asarlarning eng yuksak namunalari bilan o‘qitib borilmoqda. Shular asosida ular olam va

⁹ Ahmedov S. va boshqalarning 7-sinf darsligida (-T.: “Ma’naviyat”, 2005) va boshqa ilmiy adabiyotlarda ikki xil bo‘lishi aytiladi.

odamlarning rang-barangligi, ularning takrorlanmasligi, ayni paytda olamning butun bashariyatning bir butunligi haqida o'quvchilarda tasavvur va dunyoqarashlari shakillanib kengayib mustahkamlanib boradi. Eng muhimi, ular olam odamga tegishli bo'lgan barcha hodisalarga emotsional (hissiy) munosabat bildira oladigan darajaga ko'tariladi, qarashlar, dunyoqarashlar, nuqtayi nazardan xilma-xil ko'rinish imkoniga ega bo'lishadi.

Akademik litseyda Uvaysiy hayoti va ijodi 2 soat o'rganiladi. O'quvchilarga shu vaqt mabaynida Uvaysiy hayoti va ijodini o'rgatishimiz kerak. Eng avvalo shoira haqida ma'lumotlar berishimiz lozim. Har bir shoir taxallusining o'z ma'nosi bor. Taxallus bu shunchaki bir so'z emas, balki adibning ijoddan ko'zlagan maqsadini belgilovchi timsol hamdir deb taxallus haqida ma'lumot berganimiz. Navoiy - haq va haqiqat, adolat yo'lida navo qiluvchi, Maxmur - ilohiy ishqdan mast bo'lgan darvesh va hokazo. Xo'sh, unda Uvaysiy taxallusining ma'nosi nima? Deb o'quvchilarga shu o'rinda savol beramiz va o'quvchilarga tushuntiramiz. O'tmishda Uvays Qaraniy ismli valiy zot o'tgan. Uning Muhammad alayhissalomga bo'lgan muhabbati shu kungacha insonlar orasida doston bo'lib kelmoqda. U payg'ambarimiz bilan bir zamonda, bir-birlaridan un-chalik uzoq bo'lmagan joyda yashagan bo'lsa-da, ularga ko'rishish nasib etmagan. Bu zot Muhammad alayhissalomga hali payg'ambarlik berilmay turib, uning qachon va qayerdan chiqishini bilmagan holda Rasulullohning kelishini intizorlik bilan kutgan. O'zi hali ko'rmagan, daragini faqat ilohiy kitoblardan eshitgan payg'ambarga g'oyibona muhabbat qo'yadi. Muhammad alayhissalom ham o'ziga zamondosh sahobalari hamda ummatlari ichida ko'rmay turib, Uvaysy Qaraniy hazratlariga alohida ikrom va e'zoz bilan mehr qo'yganlar. Shundan Islom olamida payg'ambarimizning (garchi u zot o'tib ketgan bo'lsalarda) g'oyibona nazari - nigohiga sazovor bo'lish ilinjida «uvaysiylik» yo'li paydo bo'lgan. Ehtimol, shoira Uvaysiy ham o'z taxallusini qaysidir bir buyuk zotga bo'lgan g'oyibona uvayslik munosabati tufayli tanlagandir deb o'ylaymiz. Mana, shoira Jahon Otin taxallusining ma'nosini ham o'quvchilar bilib olgandan so'ng. Shoiraning hayoti haqida o'quvchilarga ma'lumot beramiz. Shoira

Marg‘ilon shahrida ziyoli oilada dunyoga keldi. Otasi o‘zbek va tojik tillarida she‘rlar yozgan ijodkor, onasi ham fozila ayol bo‘lgan. Hofiz unvoni bilan el ichida tanilgan akasi Oxunjon ashula aytar, musiqadan yaxshigina xabardor edi. Badiiy did yuqori bo‘lgan ma‘rifatli oilada voyaga yetgan Jahon Otin yoshligidan she‘r mashq qildi va tez orada «Uvaysiy» taxallusi bilan shuhrat topdi. Shoiraning turmush o‘rtog‘i Hojixon erta vafot etib, qizi Quyoshxon, o‘g‘li Muhammadxonni tarbiyalab voyaga yetkazish yakka o‘zining zimmasida qoladi. U maktabdorlik qiladi, ijod bilan shug‘ullanadi. Farzandlari ham she‘rlar yozgan. Uvaysiy hayoti va ijodiy faoliyatining bir qismi malika va shoira Nodirabegim iltifoti tufayli xon saroyida kechadi. Bu yerdagi qizg‘in ijod uchun kerakli adabiy muhit, farzandlarining yashashi va tarbiyasi uchun qulay sharoit shoiraning bir necha yillar osoyishta hayotini ta‘minladi. 1822-yilda Nodirabegimning turmush o‘rtog‘i Amir Umarxon vafot etgach, Uvaysiy uchun ham tashvishli va qayg‘uli kunlar boshlanadi. Otasining o‘rniga taxtga o‘tirgan Muhammad Alixon unga yaxshi munosabatda bo‘lmadi. Boz ustiga, o‘g‘li Muhammadxon ham sarbozlikka olinib, Qashqar uchun olib borilayotgan urushga jo‘natildi. Oilaviy turmushi baxtsiz kechgan qizi Quyoshxon kasallanib, o‘ttiz yoshida vafot etadi. Undan Bibi Xadicha ismli qizcha qoladi. Buxoro amiri Nasrullo 1842-yilda Qo‘qonni bosib olib, Nodirabegimni, uning o‘g‘li va nabiralarini qatl ettiradi. Shundan so‘ng Uvaysiy ham ona shahri Marg‘ilonga qaytadi va taxminan 1845-yilda vafot etadi. O‘quvchilarga shoiraning hayoti haqida tushuntirib bo‘lgach, uning ijodini ham tushuntiramiz.

Shoira mumtoz adabiyotning g‘azal, muxammas, musaddas, murabba‘, chiston hamda doston kabi janrlarida qalam tebratgan va uning she‘rlari asosan ishqiy mavzuda bitilgan. Ularda o‘zining Yaratuvchisiga intiqlik bilan intilayotgan solik banda, Payg‘ambar alayhissalomga oshiq ummat, ustozlarga muhabbatli shogird sifatida tuyg‘ularini izhor etadi. Shuningdek, insonning insonga sevgisini tarannum etuvchi g‘azallari ham talaygina. Uvaysiyning «Uvaysiyman», «Sog‘indim» kabi g‘azallari hasbi hol tarzida yozilganligini o‘quvchilarga o‘rgatib. Ularda shoira hayotining ayrim lavhalari, taqdiri uchun muhim bo‘lgan hayotiy

holatlar bayon etilgan gʻazallarni tushuntirish. Masalan, «Sogʻindim» radifli gʻazalda farzandidan judo onaning iztiroblari, sogʻinchini aks ettirgan buni oʻquvchilarga taʼsirli qilib oʻqib oʻquvchilarni jon-joniga singdirish kerak. Uvaysiy chistonavis sifatida ham oʻz mahoratini namoyon etganligini ham aytib oʻtish lozim. Ayniqsa, «Anor» chistoni yaratilgandan buyon sheʼriyat ixlosmandlari eʼtiborini qozonib kelmoqda. Ushbu “Anor” chistonini oʻquvchilarga oʻqitib ushbu chistondan nimani tushunganini soʻrab soʻng oʻzi aniq qilib oʻqituvchining oʻzi tushuntirib beradi.

Darsimizning birinchi soatida oʻquvchilarga biz Uvaysiy hayoti va ijodi haqidagi maʼlumotlarni berar ekanmiz, bu orqali shoironing ibratli hayotini shu sinf oʻquvchilar uchun oʻrnak qilib koʻrsatamiz, va oʻquvchilarga kelajakda Uvaysiyning asarlarini tahlil qilish, keying darslarda amalga oshirishimiz lozim boʻlgan ishlar haqida muayyan tasavvur uygʻatishga harakat qilamiz. Demak, Uvaysiy hayoti va ijodidagi asosiy va muhim sanalar, uni hayotidagi ijod yoʻlida turmush mashaqqatlarini yengish yoʻlidagi, qiyinchiliklarga sabir qonoat bilan bardosh qila olgan ayol timsoli sifatida siymosi ham, oʻquvchi koʻzi oldida yorqin jonlantiradi. Bu jarayonda biz nafaqat Uvaysiy asarlari, balki shoironing partiriti, kitoblariga ham murojat qilamiz. Ular orqali ham oʻquvchilarni tasavvurida muayyan fikr mulohazani uygʻatish bilan bir qatorda, oʻquvchilarda maʼlum bir koʻnikmalarni hosil qilishga harakat qilamiz. Uvaysiyning shu sinf darsligida berilgan “Uvaysiyman” nomli gʻazalini tahlil qilar ekanmiz, avvalo biz oʻquvchi diqqat eʼtiborini gʻazalda qoʻllanilgan tushunilishi qiyin boʻlgan arabiy va forsiy tildagi soʻzlar lugʻatiga qaratamiz. Shu oʻrinda oʻquvchilarda lugʻat bilan ishlash koʻnikmalarini ham shakillantirishimiz lozim. Demak, biz ushbu sheʼrdagi tushunilishi qiyin boʻlgan lugʻatini doskaga yozamiz va oʻquvchilarni har biriga yozib olishini, keyingi darsda ularni yod olib kelishlarini tafsiya qilamiz. Oʻquvchilar mana shu soʻzlarni oʻrganish orqali ham, shoira sheʼrlari mohiyatini anglashga, uni mazmuniga singdirilgan maʼno qatlamlarini, nafaqat zohiriy maʼno balki botiniy maʼno qatlamlarini anglaydi, tahlil qila oladi va Uvaysiyning ruhiy

kichinmalarini muayyan darajada tushuna olishiga erishish bu darsning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

O‘quvchilarga “Uvaysiyman” g‘azalini o‘qitib tahlil qildiramiz.

G‘AZALLAR

* * *

Mehnat-u alamlarga muhtalo Uvaysiyman,
Qayda dard eli bo‘lsa, oshno Uvaysiyman.
Istadim bu olamni, topmadim vafo ahlin,
Barchadin yumib ko‘zni muddao Uvaysiyman.
Uz diling taalluqdin¹, band qil Xudo sori,
To degil kecha-kunduz: «Mosivo² Uvaysiyman!»
Kechalar fig‘onimdin tinmadi kavokiblar³,
Arz to samo⁴ uzra mojaro Uvaysiyman.
To ko‘rib xarobotin⁵ ta’na etma, ey zohid,
Bir nafas emas xoli iqtido⁶ Uvaysiyman.
Faqr borgohiga⁷ qo‘ysa gar qadam har kim,
Bosh agar kerak bo‘lsa, jonfi do Uvaysiyman.
Vaysiy beriyozat⁸ deb sahl⁹ tutma, ey orif,
Ishq aro nihon dardi bedavo Uvaysiyman.

G‘azalda tahlilga qiynalgan so‘zlarni o‘quvchilarga lug‘at orqali o‘rgatishimiz mumkin

Lug‘at

1-Solik – ma’naviy tozarish, ruhiy poklanish yo‘lidagi shaxs.

2-Istadim – bu yerda: «izladim» ma’nosida.

Uz diling taalluqdin – dilingni dunyo aloqasidan uz, ya’ni dun yodan yuz o‘gir.

3-Mosivo Uvaysiyman – dunyodan uzilgan Uvaysiyman.

4-Kavokib – yulduzlar.

5-Arz to samo – yerdan osmongacha.

Xarobotin – bu yerda: so‘fiylar maskani.

6- Iqtido – ergashish. Bu yerda Uvaysiyning so‘fiylik, tasavvuf maslagiga ergashgani anglashiladi.

7-Borgoh – faqir so‘fiylar, ishq ahlining manzilgohi.

8-Beriyozat – mashaqqatsiz, qiynoqsiz, azobsiz.

9-Sahl – yengil, oson.

Ushbu g‘azaldan so‘ng savol va topshiriqlarni o‘quvchilarga bersak bo‘ladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Shoira nima uchun barchadan ko‘zni yumibgina muddaoga yetishini aytmoqda?

2. Dunyodan uzilib, dilni Xudo sari band qil deganida nimani nazarda tutgan: tarki dunyo qilishnimi yoki moldunyoga berilmaslik kerakliginimi?

3. Ilohiy ishqda o‘rtanayotgan oshiqning kechinmalari nima uchun yer-u ko‘kni larzaga soladi?

4. G‘azaldagi oshiqning zohid bilan bahsga kirishishining boisi nima? Degan savollar bersak bo‘ladi.

Har qanday she‘r yoki nasriy asar bevosita va bilvosita ijodkorning hayoti va ijodi tarjimai holi bilan bog‘lanadi.¹⁰ Xususan, adabiyotimiz tarixini kuzatar ekanmiz, ko‘plab ijodkorlarimiz yozayotgan asarlarini o‘z hayotidan, ibratli hayot yo‘li bilan bir qatorda hayotda uchragan mashaqqatlarini aks ettirishdan iborat ekanligini guvohi bo‘lamiz. Xususan, Uvaysiyning 7-sinf darsligida keltirilgan “Uvaysiyman” radifli g‘azali haqida ham, ushbu fikrlarni ayta olishimiz mumkin. Chunki Uvaysiy biz bilamizki, Margilondan Qo‘qonga kelib Amir Umarxon saroyida istiqomat qilar ekan, saroyda mavqeyi nihoyatda yuksak bo‘lgan. Shoira mana shu saroy muhitida yoshlarni adabiyoti san‘atga ixlosmandlik ruhida tarbiyalash bilan bir qatorda bevosita badiiy ijod bilan ham shug‘ullangan. Ammo, Amir Umarxon vafot etgach, Uvaysiyning hayotiga ham ma‘lum darajada

¹⁰ Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. –T.: Fan, 2006. – B.75

qiyinchiliklar, mashaqqatlar kirib keldi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki, Nodiraning o‘g‘li Muxammadalixon taxtga o‘tirar ekan Uvaysiy mana shu davrda saroy muhitidan biroz cheklangandek bo‘ladi. Uvaysiyning o‘g‘li Muhammadxon sarboz sifatida ishga olinadi va u Eronga yuboriladi. Mana shu o‘g‘lidan ajralish ham Uvaysiyning hayotiga qayg‘u kulfat olib keladi. U o‘g‘lini uzoq yillar mabaynida kutadi, ammo o‘g‘li ketgan joyidan qaytib kelmaydi. Ona o‘z o‘g‘lini na tirikligini ekanligini, na o‘lik ekanligini bilmas ekan g‘oyatda o‘g‘liga ilxat bo‘ladi natijada “Sog‘indim” g‘azalida ushbu tuyg‘ularini yuksak darajada san’atkorlik bilan aks ettira olgan. Biz o‘quvchilarga “Sog‘indim” g‘azalini tahlil qilishgatavsiya etar ekanmiz, shu jarayonda bevosita Uvaysiy hayotida bo‘lib o‘tgan ush bu voqia bilan ham tanishtirib o‘tishimiz lozim.¹¹ Demak Uvaysiy tarjimayi holi bilan bog‘liq bu voqea o‘quvchini g‘azal matnini chuqurroq anglashi uchun yordam beradi. Uvaysiyga bo‘lgan mehr muhabbat tuyg‘ularini ham kamol topishiga yordam beradi.

Shoiraning “Sog‘indim” g‘azalini ham o‘quvchilarga o‘qitamiz va uni ham tahlil qilamiz.

SOG‘INDIM

Bukun, ey do‘stlar, farzandi jononimni sog‘indim,
Gado bo‘lsam ne ayb, ul shohi davronimni sog‘indim.
Musofi rman, g‘aribman, bekas-u ham benavodurman,
Vujudim dardga to‘ldi, emdi darmonimni sog‘indim.
Tilimning zikri-yu, ko‘nglimni fi kri, yaxshi farzandim,
Azizim, yolg‘izim, davlatli sultonimni sog‘indim.
Kecha-kunduz yo‘lig‘a muntazirdurman, tikarman ko‘z,
Kelib holim so‘ribon ketsa, mehmonimni sog‘indim.
Nasibin uzmadi Tangri, ilojin topmag‘ay kelsa,
Onam deb bo‘lg‘usi bag‘ri qizil qonimni sog‘indim.
Qorong‘u bo‘ldi olam ko‘zima ushbu judolikdin,

¹¹ Adabiyot (majmua). Akademik litseylarning 2-bosqichi o‘quvchilari uchun / To‘xliyev B., Mirsamiqova R., Ametova O. – T.: Bayoz, 2014. – B.3-141

Ko‘z-u ko‘nglum ziyosi mohi tobonimni sog‘indim.

Mani bekas Uvaysiy, yig‘lagayman ro‘z-u-shab tinmay,

Uyimning ziynati, ko‘z ravshani, xonimni sog‘indim.

“Sog‘indim” she‘ri shoiraning tarjimayi holi bilan bog‘liq. Amir Umarxon vafotidan keyin Qo‘qon taxtiga o‘g‘li Muhammad Alixon o‘tiradi. Uvaysiyning o‘g‘lini sarbozlikka oladi. Qashqar urushiga jo‘natilgan o‘g‘li Muhammadxonni sog‘inib, o‘rtanib “Sog‘indim” g‘azalini yozganini, g‘azaldagi “Gado”, “Shohi davron” so‘zlari orqali biz shoiraning intizorlik tuyg‘ularini his qilganini o‘quvchilarga o‘rgatamiz.

Vujudim, dardga to‘ldi,

emdi darmonimni sog‘indim

misralarida farzandini sog‘inib, iztirob chekayotgan ayol tuyg‘ulari aks ettirilgan o‘quvchilarga tushuntiramiz.

Dard-sog‘inch, darmon-diydor ma’nosida kelgan.

Tilimning zikri-yu, ko‘nglimni fikri, yaxshi farzandim,

Azizim, yolg‘izim, davlati sultonimni sog‘indim

Bu misralarda onaning farzand dog‘ida azoblanishi aks ettirilgan. Shoira oddiygina – askar o‘g‘lini ”davlati sultonim” deb ataydi. Albatta, har bir ona uchun farzand, sulton kabidir. Uvaysiy ham o‘g‘lini o‘z davlati, oilasining sultoni deb biladi.

“Onam deb bo‘lgusi bag‘ri qizil qonimni sog‘indim”

misralari orqali esa farzandining ham ko‘ksi qonga to‘lib, uni ham onasiga bo‘lgan sog‘inch qiynayotgani aks ettirilgan o‘quvchilarga tushuntiramiz. Ushbu g‘azal to‘g‘risida ham savol va topshiriqlar berish kerak.

Savol va topshiriqlar:

1. She‘rdan shoira tarjimayi holi bilan bog‘liq jihatlarni toping. G‘azalda ifodalangan yetakchi fikr va tuyg‘uni aniqlang.
2. G‘azaldagi «gado», «shohi davron» timsollari shoiraning intizorlik tuyg‘ularini ifodalashga qay darajada xizmat qiladi?

3. Shoiraning: «Vujudim dardga to'ldi, emdi darmonimni sog'indim» tarzidagi anduhida o'zbek onalariga xos sifatlarning qanday ifodalanganligini ko'rsating.

4. G'azaldagi: «Tilimning zikri-yu, ko'nglimni fikri, yaxshi farzandim, Azizim, yolg'izim, davlatli sultonimni sog'indim» baytida sog'inch iskanjasidagi ayol tuyg'ularini ifodalashda shoira mahoratini ko'rsatuvchi jihatlarni toping.

1Benavo - baxtsiz, sho'rpehona.

2Ro'z-u-shab - kun-tun, erta-kech.

5. Shoiraning oddiygina askar o'g'lini «davlatli sultonim» deb atashi sababini qanday izohlaysiz?

6. «Onam deb bo'lg'usi bag'ri qizil qonimni sog'indim»

misrasida ifodalanayotgan ma'noni anglatib.

7. Shoiraning o'ziga nisbatan ishlatgan sifatlari orqali iztirobni, o'g'liga qo'llagan sifatlarning vositasida sog'inchni ifodalaganini tahlil qilib chiqing.

8. She'rda o'g'ilning holati, kechinmalari ham aks etganmi?

9. Holat va kechinmalar tasviri uchun qo'llangan ifodalarni toping, ularning g'azal badiiyatida tutgan o'rnini sharhlang. Ushbu savollarga o'quvchilar javob berishadi ,yanada darsda ularni qiziqtirish uchun har xil metodlardan foydalanishimiz lozim. Masalan hayoti va ijodi haqida ularni qiziqtirish uchun “aqliy hujim” usulidan foydalansak bo'ladi.

Bugungi kunda ta'lim tizimiga ko'plab metod va usullar kirib kelmoqda. Biz bilamizki, an'anaviy ta'lim usulida ko'proq o'qituvchi gapirib o'quvchilar tinglovchi vazifasini bajargan. Bu jarayonda o'qituvchi va o'quvchi hamkorligiga yetarlicha ahamiyat berilmagan. Bugungi kunda esa nafaqat o'qituvchi balki o'quvchi ham, ta'lim jarayonini faol ishtirokchisidir. O'qituvchi va o'quvchi teng huquqli ta'lim jarayonida ishtirok etar ekan, mana shu jarayonda biz asar mohiyatini chuqurroq anglatish, o'quvchilar qalbiga estetik tuyg'ularni singdirish demak, ijodga qalb kichinmalariga oshno qilish singari maqsadlarni o'z oldimizga vazifa qilib qo'yamiz. Adabiy ta'lim jarayonida ko'pgina metodlar bilan bir

qatorida “Aqliy hujum” metodiga ham murojat qilinadi.¹² Biz avvalo asar tahliliga kirishqan oldin, “aqliy hujum” metodi orqali o‘quvchilarda muayyan bir savollarga javobni shakllantirishimiz lozim.

“Aqliy hujum” usuli

1-guruh:

Shoira qaysi janrda ijod qilgan?

(g‘azal, murabba, muxammas, musaddas, chiston va doston)

2-guruh:

Uvaysiy she’rlarining nomlarini ayting (“Uvaysiyman”, ”Dog‘ oldi, dog‘ o‘ldi”, ”Sog`indim”)

1-guruh:

Shoiraning “Sog‘indim” g‘azalida nima aks ettirilgan?

(Farzand sog‘inchi)

2-guruh:

“Uvaysiyman” radifli g‘azalida radif nechta ma’noda kelgan (ikkita)

1-guruh:

Mumtoz adabiyotdagi she’riy topishmoq nima? (Chiston)

2-guruh:

Chiston hajmi qancha bo‘ladi?

(Hajmi cheklanmagan)

1-guruh:

“Uyimizning ziynati, ko‘z ravshan”

misrasi orqali nima aks ettirilgan? (Kecha-yu kunduz o‘g‘lini nomini takrorlab, uni o‘ylashi aks ettirilgan)

2-guruh: guruh o‘quvchilariga ushbu usul tarzda o‘rgatishimiz mumkin.

¹² Niyazmetova T.R. Adabiy ta’limda kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish // Til va adabiyot ta’limida yangi pedagogik texnologiyalar. 1-kism. -T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2006. B. 6-10.

“Masuvo Uvaysiyman” so‘zining ma’nosi nima? (Dunyodan uzilgan Uvaysiyman)

1-guruh:

“Kavokib” so‘zining ma’nosi nima? (Yulduzlar)

2-guruh:

“Beriyozat” so‘zining ma’nosi nima?

(Mashaqatsiz, azobsiz, qiynoqsiz)

1-guruh:

“Benavo” so‘zining ma’nosi nima?

(sho‘rpehana, baxtsiz)

2- guruh:

“Ro‘z-shab” so‘zining ma’nosi nima?

(Kun –tun, erta - kech)

Shunday usul va metodlardan foydalanib har bir bolani jalb qilsak, o‘rgatishimiz oson bo‘ladi.

Uvaysiy she’riyatida g‘azaldan keyingi o‘rinda chistonlar turadi. Demak, chiston janrida ijod qilar ekan shoira avvalo, inson tuyg‘ulari balki jamiyat bilan muommalarini ham bosh masala sifatida asar markaziga chiqaradi. Xususan, uning chistonlari 7-sinf darsligida keltiriladi. Biz o‘quvchilarga chiston va topishmoqni bir biridan farqli jihatlari o‘rgatishimiz lozim. Biz bilamizki, topishmoq xalq og‘zaki ijodi mahsuli va bu jarayonda nafaqat she’riy balki nasriy usulda ham topishmoqlar yaratilgan. Chistonlar she’riy yo‘l bilan yaratilib bu chistonlarda biron narsani topishga mo‘ljallanishi bilan bir qatorda jamiyatning muhim masalalari ham qalamga olinadi. Chiston janrida Uvaysiy ijod qilar ekan o‘quvchini zehni o‘tkirlashtirish bilan birga chiston orqali o‘z davrining muhim masalalariga ham o‘rg‘u bergan. Biz o‘quvchiga tushuntirar ekanmiz nazariy ma’lumotdan so‘ng Uvaysiyning she’riy chistonlariga o‘tamiz. Chistonlarni tahliliga alohida e’tibor beramiz. O‘quvchi bu chistonlarda yashiringan hodisani

topishi bilan bir qatorda chistondagi aks ettirilgan badiiy mahoratga ham ijodkorni o'ziga xos tasver usuliga ham alohida urg'u berishi lozim. Chistonni o'rganish jarayonida ko'pgina metodlarga murojat qilamiz va shu orqali o'rganilayotgan chistonni o'quvchi ongiga tasirchang yetkazib berishga harakat qilamiz.

CHISTONLAR haqida ham ma'lumot berib ushbu chistonlarni topishmoq tarzda berib o'quvchilarni qiziqtirib uni o'qib bersak ham bo'ladi, yo bo'lmasa chistonni javobini rasmini chizib o'quvchilarga ko'rsatib chistonni aytirishimiz shu o'quvchilarni qiziqtirishimiz mumkin.¹³

1"Anor"

Ul na gumbazdir, eshigi, tuynugidin yo'q nishon,
Necha gulgunpo'shl qizlar manzil aylabdur makon.
Sindurub gumbazni, qizlar holidin olsam xabar,
Yuzlarig'a parda tortig'liq turarlar bag'ri qon.

2"Yong'oq"

Ul nadurkim, sabzto'nlik, yoz yog'ochning boshida,
Qish yalang'och aylagay barcha xaloyiq qoshida.
Barcha qushlarning so'ngoki2 ichida,
Ul na qushdurkim, so'ngoki toshida.


3 "Kecha va kunduz"

Ikki mahbubni ko'rdum, bir-birisin ko'rmagan,
Ikkisining o'rtasiga, do'stlar, qil sig'magan.

O'quvchilar chiston haqida yanada qiziqishi uchun klaster usulidan foydalanamiz.

¹³ Olimov S. , Ahmedov S., Qo'chqorov R. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik-majmua. – T. : G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014. – B.98-142

“Charxpalak” metodi



O‘quvchilar ma’lumotga ega bo‘lgandan so‘ng chiston haqida bilimlarini mustahkam qilish uchun savol va topshiriqlar beramiz.

Savol va topshiriqlar:

1. «Chiston»ga xos janr xususiyatlarini ko‘rsatib bering.
2. «Anor» chistonini sharhlang. O‘xshamish va o‘xshatilmish orasidagi muvofiqlik haqida fikr bildiring. Shoiraning xa-yol parvozi, tuyg‘ular dunyosi, ijtimoiy qarashlar tizimini sharhlang.
3. «Anor»ning qofiyalarini aniqlang.
4. «Yong‘oq» chistonida yong‘oqning qaysi yashirin va qan-day ochiq belgilariga tayanilganiga e’tibor qarating.
5. «Kun va tun» chistonidagi «mahbub»lar timsoliga to‘xtaling.

Ushbu savol va topshiriqlardan so‘ng, chistonlarni yod olishini aytish kerak.

O‘quvchilarga chiston qanday so‘zdan olinga qanday tarzda yozilganligi haqida ma’lumot berib o‘tamiz.

Xalq og‘zaki ijodi janri bo‘lmish topishmoq haqida yaxshi bilasiz. Ma’lumki, nomi yashirilgan narsa yoki tushu ncha belgi, ishoralariga qarab topiladigan savol yoki topshiriqlar topishmoq deyiladi. Mumtoz adabiyotdagi she’riy topis hmoq janri chiston deb yuritiladi. U forscha «chist» (nima) hamda «on» (u) so‘zlaridan iborat bo‘lib, «u nima?» degan ma’noni bildiradi. Chistonning hajmi cheklanmagan, lekin ko‘pincha bir yoki ikki bayt bo‘ladi. Turkiy ada biyotda ilk chistonlar Alisher Navoiy tomonidan yaratilgan. Fors-tojik adabiyotida undan bir necha asr ilgari ham mavjud edi hamda lug‘z deb atalgan. Uvaysiy chistonlari misolida bu janrga xos xususiyatlar yaqqol namoyon bo‘ladi. Birinchi chistonda javobni topish uchun bir qator belgi va ishoralar berilgan. Tashqi shak-liy ko‘rinishi: gumbazsimon, tuynugi yo‘q. Ichki tuzilishi: gulgunpo‘sh (qizil yopingan) qizlar hamda parda borligi. Unga munosabat shakli – sindirish kerakligi.

Bu belgilarga ko‘ra anorni ko‘rgan odam biroz tafak-kur qilib, uni topa oladi. Haqiqatan ham, anor gumbazga o‘x shaydi. Uning biror teshigi yo‘qki, ichini ko‘rib bo‘lsa. Anor donachalari esa qizil kiygan qizlarning o‘zginasi. Bo‘lak larni ajratib turuvchi pardalar go‘yo ular yuzidagi harir mato. Nihoyatda sinchkovlik va zukkolik bilan topilgan tasvir! Uvaysiy saroyda yashagan davrida xon haramidagi kanizlar hayotiga guvoh bo‘lgan. Gulday yoshligi saroy gumbazi ostida xazon bo‘layotgan qizlarning bag‘irlari qon. Saroyning harir pardalari ularni tashqi olamdan ajra-tib turadi. Yuqoridagi chiston ana shu kuzatishlar asosida yaratilgan bo‘lsa ajab emas. U ijtimoiy hayotdagi voqeaga ishora qiladi. Keyingi ikki chistonda esa bu xususiyat yo‘q. Ular tabiat dagi holat va hodisalar tasviriga bag‘ishlangan. Shundan kelib chiqsak, she’riy topishmoqlar ikki turli bo‘ladi: majoziy chistonlar («Anor») hamda oddiy chiston-lar («Yong‘oq», «Kun va tun»).

QOFIYA VA RADIF haqida ham ma’lumot berib o‘tamiz o‘quvchilarga. Qofiya she’rning asosiy unsurlaridan biri sanaladi. U she’riy asarlar musiqiyiligini, jozibasini ta’minlaydi. Qofiya matnda yarq etib ko‘zga tashlanadi, eshitalishida

ham boshqa soʻzlardan ajralib turadi.¹⁴ Shuning uchun shoirlar asarlarida asosiy fikrni tashuvchi soʻzlarni qofiyada beradilar. Qofiya boʻlishi uchun ikki va undan ortiq ohangdosh soʻzlar uygʻunligi boʻlishi kerak. Ular qofiyadosh soʻzlar deyiladi. Ohangdoshlikni bu soʻzlardagi raviy deb ataluvchi unli yoki undosh boʻlgan tirgak tovush hosil qiladi. Qofiyadosh soʻzlarda raviy qatʼiy bir oʻrinda keladi. Masalan, «Anor» chistonidagi «nishon», «makon», «qon» qofiyadosh soʻzlarida «n» undoshi raviy hisoblanadi. Ularda qofiya raviy bilan tugagan. «Yongʻoq» chistonining birinchi baytidagi «boshida», «qoshida» qofiyadosh soʻzlarida «sh» tovushi raviydir. Chunki qofiyadosh soʻzlarning oʻzagi «sh» bilan tugagan. Lekin bu chistonda qofiya raviydan keyin ham davom etmoqda. Raviy bilan tugallangan qofiyalarni muqayyad deb, raviydan keyin harflar kelgan qofiyalarni mutlaq qofiya deb atash qabul qilingan. Mumtoz sheʼr ilmiga koʻra raviy soʻzning asosida (oʻzagida) boʻlishi talab etilgan. Ammo ijod amaliyotida baʼzan bu talabdan chetga chiqishlar ham kuzatiladi. Uvaysiyning «Kun va tun» chistonida ham shu holatni koʻramiz. «Koʻrmagan» – «sigʻmagan» qofiyasidagi raviy («n» tovushi) oʻzakda emas, qoʻshimchaning tarkibida joylashgan.

Eslab qolish kerakki, «lola – piyola», «banda – xanda» kabi qofiyalarda «a» unlisi emas, balki «l» hamda «d» undoshlari raviy hisoblanadi. Soʻzdagi choʻziq unililargina raviy boʻla oladi. Qisqa unililar raviy boʻlolmaydi. Masalan, shoiraning «Uvaysiyman» radifli gʻazalida «mubtalo», «oshno», «muddao», «mosivo» soʻzlaridagi «o» unlisi raviydir.

Qofiyadan keyin takrorlanadigan soʻz yoki soʻzlar birligi radif deyiladi. Yuqorida siz oʻrgangan:

Bu kun, ey doʻstlar, farzandi jononimni sogʻindim,

Gado boʻlsam ne ayb, ul shohi davronimni sogʻindim, –

bayti bilan boshlanuvchi sheʼrida «jononimni», «davronimni» kabi soʻzlar qofiyadosh boʻlsa, ulardan keyin takrorlanuvchi «sogʻindim» radifdir.

¹⁴ Mullaxoʻjaeva K. Alisher Navoiy gʻazaliyotida tasavvufiy timsol va badiiy sanʼatlar uygʻunligi ("Badoe' ul-bidoya" devoni asosida). Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2005

Radif bir necha soʻzdan ham iborat boʻlishi mumkin. Uvaysiyning:

Ki bulbul nola, afgʻon aylamakni mendin oʻrgandi, Vujudin shamʻi soʻzon aylamakni mendin oʻrgandi, –

baytida «afgʻon», «soʻzon» qofiyasidan keyingi uch soʻzdan iborat «aylamakni mendin oʻrgandi» radif boʻlib kelgan.

Akademik litsey darsliklariga ham Uvaysiy hayoti va ijodi 2 soat ajratilgan.

7-sinf darsligi bilan litsey darsligini farqi faqat gʻazallarida 7- sinfda ikkita gʻazal berilgan “Uvaysiyman”, va “Sogʻindim” gʻazallari . Akademik litsey darsligida esa “Maqsudi koʻngul...”, “Nozuk”, “ishqida”, “Ajab yoʻq...” Tajriband (Qil amon, yorab...) ¹⁵berilgan oʻsha gʻzallardan tashqari boshqa gʻazallarini ham oʻquvchilarga tanitsak va uni oʻqitsak yod oldirsak tahlil qilib berib tushuntirib bergandan keyin ularni fikrlarashini eshitsak boʻladi. Oʻquvchilar tomonidan bildirilgan fikrlar «Bilishni xohlayman»nomli ustunga yozib boriladi. Dars oxirida Oʻquvchilar bilimi test savollari yordamida individual tarzda oʻtqazilib nazorat qilinadi va baholanadi. Guruh aʼzolarining ballari jamlanadi, eng yuqori ball toʻplagan guruh gʻolib sanaladi. Namuna sifatida quyidagi jadvalni keltiramiz:

B-B-B jadvali

Ushbu metod orqali Uvaysiy haqida maʼlumotlarni oʻqituvchi savol tarzda beradi, oʻquvchilar jadvalda berilgan Bilaman, Bilmoqchiman , Bilib oldim soʻzlar orqali javob berishadi.

Bilaman	Bilmoqchiman	Bilib oldim

¹⁵ Adabiyot (majmua). Akademik litseylarning 2-bosqichi oʻquvchilari uchun / Toʻxliyev B., Mirsamiqova R., Ametova O. – T.: Bayoz, 2014. – B.3-141

1.2. Uvaysiy gʻazallarini tahlil qilish

Bugun biz Uvaysiy gʻazallarini tahlil qilar ekanmiz oʻquvchilarga shoira gʻazal, murabba, muhammas, musaddas, chiston va doston janrida ijodlari haqida tushuncha beramiz.

Umumiy oʻrta taʼlim maktabning 7-sinf oʻquvchilariga eng avvolom bor Gʻazal haqida gapiramiz. Gʻazal arabcha soʻz boʻlib, uning maʼnosi “oshiqona soʻz” yoki “xotin-qizlar bilan yoqimli muomulada boʻlish” demakdir. Gʻazallar gʻoyasi va mazmuniga koʻra oshiqona orifona, hajviy, yumoristik, axloqiy, taʼlimiy publitsistik, ijtimoiy- maʼrifiy va tabiat tasviriga bagʻishlangan boʻlishini bolalarga oʻrgatamiz. Oʻquvchilarimiz oʻrgatishimiz zarur boʻlgan maʼlumotlar Gʻazallarda koʻpincha 2 ta markaz boʻlgan:¹⁶ biri lirik qahramonning ahvoli, ikkinchisi - maʼshuqa taʼrifi. Barcha obraz va ifodalar shu ikki markazga kelib tutashgan. Ishqiy gʻazallarda maʼshuqa, oshiq va raqib obrazlari asosiy obraz hisoblanadi degan maʼlumotlarni oʻquvchilarga beramiz. Yana bir nechta tuzilgan gʻazallar borligi haqida oʻquvchilarga tushuntiramiz. Mustaqil baytlardan tuzilgan gʻazal, Musalsal gʻazal, yakpora gʻazal, voqeaband gʻazali bor. Biz oʻquvchilarga “Uvaysiyman” radifli gʻazalini tahlilida Uvaysiyman radifi ikki maʼnoni anglatilishini. Shoiraning taxallusi va tasavvufidagi uvaysiylik yoʻlidagi soʻfiy maʼnosida kelganligini. Jahon otin oʻtmishda Uvays Qaraniy ismli oʻtgan valiy zotga alohida ikrom va eʼzoz bilan mehr qoʻyganligini.

Dilim dunyo aloqasidan uzilgan Uvaysiyman.

Dunyodan uzib dilni Xudo sari boylagin deydi.

Xudoni, iymon va vijdonni unitmaslik kerakligini uqtiradi deb oʻquvchilarga tushuntib oʻtamiz. Chunki deb unga asos keltiriladi. Shayx Axmad Taroziy sheʼriy balogʻatda qofiya ilmining muhimligini taʼkidlaydi: “...tabʼning natijasi sheʼrdur. Va sheʼrning asli qofiya va qofiyasiz sheʼr mumkin ermas”¹. Ulugʻ alloma Sharq mumtoz nazmi namunalari asosida ana shunday teran xulosaga keladi degan fikrlarni aytamiz. Bu fikrlar sheʼriyatda qofiyaning oʻrni, ahamiyatini

¹⁶ Olimov S. , Ahmedov S., Qoʻchqorov R. Adabiyot. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 8-sinfi uchun darslik-majmua. – T. : Gʻ. Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014. – B.98-142

belgilashimizda asos bo‘ladi deb o‘quvchilarga. Misralarga badiiy sayqal, ohangdorlik va purma’nolik baxsh etuvchi unsurlardan biri qofiyadir. Uning she’riyatdagi o‘rnini o‘rganishimiz, baholash borasida adabiyotshunoslikda bir qancha ishlar amalga oshirilganligini, muhim tadqiqotlar yaratilganligini. Biz oz bo‘lsada o‘quvchilarga o‘rgatishimiz mumkin.

Ahmad Taroziy yuqoridagi asarning “Al-fann-us-soniy fi-l-qofiya va-radif”¹⁷ deb nomlangan II qismida qofiya va radif bilan bog‘liq barcha muammolar xususida muhim fikrlar bayon etadi. Ular nazmning ajralmas va sayqal baxsh qismlari ekanligi misollar bilan dalillanadi. Muallif qofiya va radifning zaruriy unsurligini isbotlash bilan bir qatorda bo‘lim so‘ngida qofiya ishtirok etmaydigan she’r turi ham borligi haqida ma’lumot beradi degan so‘zlarini o‘quvchilarga aytamiz:

“Bir tariqa she’r bo‘lurkim, anda qofiya bo‘lmas.

Har baytning oxirinda radif-o‘q keltururlar.

Mo‘tabar lug‘atlardan biri “G‘iyos ul – lug‘ot”da “harora” so‘zi quyidagicha izohlanadi. ”Harora – ba ma’ni raqs kardan va tob dodan dafro az otash; va ovoze, ki az chand sozu chand xalq yak martaba baroyad va g‘avg‘oi mardum”. Ya’ni, “Harora – raqsga tushish va doirani olovda toblash; ko‘p cholg‘u, ko‘p kishilarning baravar birdan chiqargan kuchli ovozi va odamlarning jo‘rovoz g‘avg‘osi ma’nosida”. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”¹⁸da “harorat” (harora so‘zi bilan o‘zakdosh va ma’nodosh) so‘zining “ruhiy ko‘tarinkilik, jo‘shqinlik” ma’nosiga ham egaligi ko‘rsatilgan. Demak, harora she’rlar, istilohning lug‘aviy ma’nosidan ham anglashilyaptiki, ruhiy jo‘shqinlik, ruhiy g‘alayon mahsuli sifatida maydonga kelganligini o‘quvchilar bilishi lozim. “Funun ul balog‘a” tadqiqotchisi va noshiri professor Hayitmetov she’rning ushbu turiga shoir Uvaysiyning bir g‘azalini misol sifatida ko‘rsatadi: “O‘zbek adabiyotida she’rning harora turiga Uvaysiyning

¹⁷ Шайх Аҳмад Тарозий. Фунун ул- балоға. –Тошкент: 1996. –Б. 69.

“Ko‘ngil dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi”¹⁹ radifli g‘azali yaxshi misol bo‘la oladi” Professor. Qayumov ham shoira she‘rlarini tahlil etar ekan, shu she‘rga e‘tiborini qaratadi: “...Goho iztirob to‘lqinlari shunday kuchayib ketadiki, shoira qofiya to‘sig‘ini bosib o‘tib, o‘z kechinma va hayajonlarini oq she‘r tarzida ifodalaydi (“dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi” radifli she‘r)”

“Ko‘ngul dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi” radifli g‘azali

Sss Zamona kufatidin bu ko‘ngul dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi,
Bu charxi bemuruvvatdin ko‘ngul dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi.

Jarohat bo‘ldi bag‘rim tig‘I bedodi raqiblardin,
Bu ko‘tohfahm mardumdin ko‘ngul dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi.

Bu gulzori fano ichra mahali bexalal yo‘qtur,
Hamisha zaxmi xorodin ko‘ngul dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi.
Fano mardumlarini sirridin hech kimsa yo‘q ogoh,
Qabihguftor mardumdin ko‘ngul dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi.

Ko‘ngul qoni farog‘I duydadin bir lahza band o‘lmas,
Vujudim iztirob aylab ko‘ngul dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi.

Turubdur bag‘rim ichra qon misoli g‘uncha, naylarman,
Ochilmay gulsifat ushbu ko‘ngul dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi.

So‘zimdin xotiring uzra gumone o‘zga yetkurma ki,
Izhor aylamay naylay, ko‘ngul dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi.

Meni rasvoyi olamdin mabodo e'tiroz etma,
Takallum birla shod ayla, ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi.

Ko'ngulni otashin bejo qilibdur nutqi guftori,
Qayu bog' andalibidin ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi.

Bu so'zni ayladi barpo ajab gustohliq birla,
Maloli xotir o'lg'aymy, ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi.

Ajab ash'ori mavzun bog'ladi Vaysiy hasaddinkim,
Umarxon zufununekim, ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi.

“Ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi” radifli g'azal 11 baytdan iborat katta hajmli asar. U kuchli ruhiy g'alayon, kuchli iztirob mahsuli sifatida yaratilgan. Asar markazida insonni anglash masalasi turadi. Hayotdagi barcha ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar ko'ngilni anglamaslik natijasida yuz beradi. Shoira ana shu holatni badiiy talqin etadi.

G'azalning dastlabki baytlarida lirik qahramon yashayotgan muhitga e'tibor qaratiladi: Zamona kulfatshior, charx bemuruvvat, raqiblar adolatsiz, xalq kaltafahm, gulzor – omonat dunyo esa tikanli. Bu jumlar lirik qahramon yashayotgan muhitni fosh etish uchun yetarli. Shunday zahmatlar iskanjasida hayot kechirishga mahkum shaxs(lirik qahramon)ning ko'ngli qorong'u, yorishmaydi. Lola kabi dog'dor.

Shoironing asosiy fikri – ko'nglining dog'dor ekanligini ifodalash. Dastlab, u nega degan savolga javob beradi. Dilgirlik sababini oshkor etadi. 4-baytdan boshlab lirik qahramon ruhiyati yoritiladi. U – fano mardumi. Uning chuqur falsafiy asrorlari bor. Ammo atrofida ko'nglini anglaguvchilar yo'q. Bu hol lirik qaxramon dilining xufton bo'lishiga sababchi. Dilgirlikka “fano mardumlari” va “qabihguftor mardum” dunyoqarashi o'rtasidagi ziddiyat asos bo'ladi.

Shoir dardmandligiga, iztirobiga bois muhit va shaxs dunyoqarashidagi chuqur ziddiyat. Ruhii holatning ziddiyati shoira tomonidan tazod san'atini faol qo'llash orqali aniq yoritib berilgan. Fano gulzori xor zaxmi; fano mardumi qabihguftor mardum; g'uncha gul va hokazo kabi zid timsollar lirik qahramon tabiatini ochib berishda faol xizmat qilgan. Ko'ngil qoni ko'zdan bir lahza to'xtamaydi. Lekin, baribir, lirik qahramon nazdida "bag'ri ichra qon misoli g'uncha". U (gul kabi) ochilmay, ko'nglini dog' ustiga dog' qiladi.

G'azalning olti baytida lirik qahramon ruhiy holati, uni miskin etgan vositai sabablar izohlanadi.

7-baytdan boshlab u o'z shikoyatidan hijolat cheka boshlaydi. Biror noto'g'ri gumonlarga bormaslikni, asosiy xohishi to'lib ketgan yuragini bo'shatishdan iboratligini ta'kidlaydi.

Asarda bosh timsol oshiq. Uning tabiatini yoritish mobaynida shoira ishq kechinmalarini chuqur insoniy munosabatlar, ijtimoiy hodisalar tahlili bilan mutanosib holatda ifodalaydi. Insonning ko'nglini anglash, o'zligini tanish muammolari bilan bog'liqlikda talqin etadi:

Zamona kulfatidin bu ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi,
Bu charxi bemuruvvatdin ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi.

Jarohat bo'ldi bag'rim tig'i bedodi raqiblardin,
Bu ko'tohfahm mardumdin ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi1.

Uvaysiy lirik qahramoni atrof-muhitdan, zamondoshlaridan qanoatlanmaydi. Mazkur g'azalda ko'ngullar to'qnashuvidan, ruhiy ziddiyatlardan tug'ilgan tuyg'ular o'z ifodasini topadi. Shoira dunyoning, jamiyatning g'alayonli, to'fonli munosabatlari manzarasini ta'sirli chizib bera olgan.

Asar ko'ngil jarohati haqida. U kuchli ruhiy g'alayon mahsuli. Uning sababchisi esa zamona kulfati, bemuruvvat charx, kaltafahm va yovuz so'zli

kishilardir. Asar bu sitamgarlardan jarohatlangan ko'ngil hayqirig'i bo'lib dunyoga kelgan. Unda qofiya yo'q. Shu sababli radifning ushbu she'rdagi o'rni muhim maqomga ega. U lirik qahramonning butun fig'on-u nolasini keng qamrovda o'zida mujassamlashtirgan.

“Ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi” jumlasida radif vazifasida kelgan. U lirik qahramon ruhiy holatining kul minatsiyasini ifodalay olgan. Shu sababli o'quvchi e'tibori ushbu jumlagacha qaratilgan. Lug'atlarda izohlanishicha, “dog'” so'zining bir nechta ma'nolari bor. Kuyuk, kuygan joy, qoralik, belgi, iz, qayg'u kabilar shular jumlasidandir. Uvaysiy iste'dodining tabiatidan kelib chiqib, g'azalda ushbu so'zning bir nechta ma'nosini nazarda tutib qo'llaydi. “Dog' o'ldi” iborasi, birinchidan, lirik qahramon ko'nglidagi zaxm-u jarohat izlarini ifodalasa, ikkinchidan, ko'ngilning g'am-u anduxda qovurilganligi, dog'langanligi haqida ham xabar beradi.

G'azal maqta'si quyidagi bayt bilan yakunlangan:

Ajab ash'ori mavzun bog'ladi Vaysiy hasaddinkim,
Umarxon zufununekim, ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi.

Bayt mazmunidan ko'rinadiki, g'azal nazira sifatida yaratilgan.

Biz Amiriy devonini kuzatib, uning “bo'ldi” radifli bir g'azali borligini ko'rdik.

U quyidagi matla' bilan boshlanadi:

Ajab yo'ldur rahi ishqingda ko'p dono zabun bo'ldi,
Junun har kimga tug'yon ayladi, ul zufunun bo'ldi.

E'tibor berilsa, keltirilgan ikkala baytning bir-biriga mutanosib jihatlari bor.

Avvalo, maqta'da shoira she'rning yozilish sababini ko'rsatadi.

Umarxon asaridan ta'sirlanib, uning donoligiga havaslanib, chuqur mazmunli she'r – “ash'ori mavzun” bog'laganini tan oladi va e'tirof etadi.

Ikkinchidan, ikkala baytda ham “ajab” va “zufunun” soʻzlari uchraydi. Ular orqali shoira asari Umarxon gʻazali taʼsirida yaratilganiga ishora borligini sezish qiyin emas. Uchinchidan, ikkala gʻazal ham hazaji musammani solim (mafoiylun – mafoiylun – mafoiylun; V - - - V - - - V - - - V - - -) vaznida yozilgan. Ushbu oʻrinda Uvaysiy Amiriy ijodiga, uning shaxsiyatiga ham “zufunun” soʻzi orqali baho beradi.

Biz ikki gʻazalni qiyosan oʻrganganimizda, Uvaysiy mahoratini yanada yaqqolroq koʻramiz.

Amiriy gʻazali 7 baytdan iborat. U ishqiy yoʻnalishdagi asar. Unda ishqning kirdikorlari, oshiqning ruhiy gʻalayonu holatlari oʻz ifodasini topgan. Shoir bir jumla bilan birinchi baytdayoq, bu masalani aksioma, tezis sifatida bayon etadi:

Ishq shunday qudratki, u “koʻp donolarni zabun” etadi.

Uning yoʻldoshi junun esa koʻplarni donoga aylantiradi. Asar oxirigacha shoir eʼtibori dono – zabun – junun zufununlik silsilasini oydinlashtirishga qaratilgan. Soʻnggi baytda shoir oshiq koʻngli suratini chizib beradi: Uningcha, ishq dardiga muhtalo koʻngilda chandiqlar, tugunlar shunday rang-barangki, xuddi tovus kabi sernaqshdir:

Amiriy, tushti xattu holidin koʻnglumgʻa savdoe,

Tugunlar koʻksuma tovusdek andin fuzun boʻldi.

Yuqorida taʼkidlaganimizdek, gʻazal hazaj bahrida yozilgan. Zabun, zufunun, nilgun, xun, nigun, tugun, fuzun kabi soʻzlar qofiya sifatida qoʻllangan. “Boʻldi” soʻzi radif boʻlib kelgan.

Uvaysiy gʻazali Amiriy asariga javob tarzida yozilgan. Shoira sof oshiqona yoʻnalishdagi asardan taʼsirlanib, mazmun, gʻoya, badiiy tasvir usullari qamrovi kengaygan, oʻziga xos yangi asar yaratadi.

Amiriy oshiqning yoqimli, iztirobli dardlarini tasvirlaydi, Uvaysiy esa ishq kechinmalarini chuqur insoniy munosabatlar, ijtimoiy hodisalar tahlili bilan mutanosib holatda ifodalaydi. Inson koʻnglini anglash, tushunish muammolari

bilan bog‘liqlikda talqin etadi. Biz mumtoz adabiyotning ko‘plab namunalarini kuzatib, ba‘zan qofiyasi mukammal bo‘lmagan, ba‘zan qofiyasiz yozilgan ayrim baytlarga duch keldik. Ammo Uvaysiygacha bo‘lgan davrda, qofiyasiz yozilgan tugal asarni uchratmadik. Uvaysiy o‘zining kuchli mahorati tufayli she‘rning asosiy unsurlaridan biri hisoblangan qofiyasiz ham go‘zal asar yaratish mumkinligini isbotladi. U qofiya qo‘llamasdan bir maromdagi ohangni – ritmni yarata oldi. O‘quvchi e‘tiborini muhim fikr-g‘oya atrofiga jamlay bildi. Filologiya fanlari doktori To‘ychiev Uvaysiyning mazkur g‘azalini quyidagicha baholaydi: “Demak bu g‘azal (Uvaysiy “Ko‘ngul dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi...”) an‘anaviy qofiya nazariyasiga ko‘ra erkin yozilgan. Bu hol inqilobgacha bo‘lgan davrda “Oq she‘r” yozishda birinchi urinishdir”. Ahmad Taroziy fikriga ko‘ra, o‘zbek adabiyotida ham qadimdan qofiyasiz she‘r yaratish an‘anasi mavjud. Uvaysiy ana shu unutilayozgan an‘anani o‘zining noyob iste‘dodi va takrorlanmas mahorati tufayli harora she‘r misolida qayta jonlantirishga muyassar bo‘ldi. Uvaysiy yetuk shoira sifatida shaklbozlikka, san‘atpardoqlikka qarshi edi. U asarlarida mazmun, fikr, g‘oya muhim ekanligini e‘tirof etgan o‘rinlar bor:

Uvaysiy, qofiya tang o‘lsa ham mazmuni mahvashdin

Hayolin mahkam et, ayg‘ilki: “Ehromingga sallamno!”

Adabiyotshunoslar fikriga ko‘ra, Uvaysiydan keyingi davrda Nihoniy, Usmon Nosir kabi shoirlar ijodida ham bunday she‘rning ayrim namunalari uchraydi.²⁰

Harora she‘rlar keyinchalik, balki, adabiyotda oq she‘r erkin she‘rlarning paydo bo‘lishiga zamin yaratgandir.

²⁰ Komilov N., To‘xliiev B. O‘zbek adabiyoti.-T.: “O‘qituvchi”, 1993. 234-bet; Qosimov B., To‘xliyev B., Yo‘ldoshev Q. Adabiyot. Majmua. 10-sinf darsligi., 174-bet. To‘xliyev B., Abdurahmonova B. Adabiyot. Akademik litseylarning 1-bosqichi uchun. T.: “Cho‘lpon”, 2007. 203-bet.

II BoB. Uvaysiy hayoti va ijodini o‘rganishda interfaol metodlar

2.1 Shoira lirik qahramoni ruhiy kechinmalarini o‘rganish

Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasi o‘sishiga olib keladi.²¹ Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta’lim metodlari hozirda eng ko‘p tarqalgan va barcha turdagi ta’lim muassasalarida keng qo‘llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta’lim metodlarining turlari ko‘p bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo‘llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta’lim metodlarini ma’lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to‘g‘ri tanlash muammosini keltirib chiqargan. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

²¹ Niyazmetova T.R. Adabiy ta’limda kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish // Til va adabiyot ta’limida yangi pedagogik texnologiyalar. 1-kism. -T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2006. B. 6-10.

Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o‘zaro muloqotda, o‘zaro bahs-munozarada fikrlash asosida, hamjihatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o‘quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o‘rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. O‘qitishning interfaol usullarini tanlashda ta’lim maqsadi, ta’lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o‘quv muassasasining o‘quv-moddiy sharoiti, ta’limning davomiyligi, o‘qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e’tiborga olinadi.

Interfaol metodlar deganda – ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Fanlarni o‘qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o‘ziga xos xususiyatga ega. Ta’lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o‘rganish va amalda qo‘llash o‘quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to‘g‘ri echimini topishlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchi-talabalarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o‘quvchi-talabalarning bilim, ko‘nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi. Yuqorida aytilganlardan interfaol ta’lim metodlarini tegishlicha tahlil qilish va shu asosda ularni tasniflash zarurati ma’lum bo‘ladi. Quyida ushbu masala yuzasidan umumiy mulohazalarni keltiramiz.

Bu metodlarni tasniflashda ularni interfaol metodlar, interfaol ta’lim strategiyalari, interfaol grafik organayzerlarga ajratish mumkin.

Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta’lim metodlari quyidagilar sanaladi:

Interfaol metodlar: “Keys-stadi” (yoki “O‘quv keyslari”), “Blist-so‘rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Muammoli ta’lim” va boshqalar.²²

²²Adilova S. A. O‘zbek tili mashrulotlarini kompyuter texnologiyalari vositasidatashkil etish (oliy ta’lim muassasalarining rusiyta- bon guruegarida): Ped. fan. nom.... diss. –T., 2004. 160 6.

Interfaol grafik organayzerlar: “Baliq skeleti”, “BBB”, “Konseptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “T-jadval”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?” va boshqalari. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg‘ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko‘rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishlash ham ko‘proq jihatdan interfaol ta’lim metodlariga tegishli bo‘lib, ularning orasida boshqa farqlar yo‘q. Interfaol ta’lim metodlarini ko‘pincha turli shakllardagi o‘quv mashg‘ulotlari texnologiyalari bilan bir vaqtda qo‘llanmokda. Bu metodlarni qo‘llash mashg‘ulot ishtirokchilarining faolliklarini oshirib, ta’lim samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi. Bugungi tezkor zamonda ta’lim samaradrligini oshirishning eng ma’qul yo‘li mashg‘ulotlarni interfaol metodlar yordamida tashkil etilmoqda. Eng muhimi, interfaol metodlarni qo‘llash orqali o‘qtuvchi o‘quvchilarning aniq ta’limiy maqsadga erishish yo‘lida o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etishi, yo‘naltirishi, boshqarishi, nazorat va tahlil qilishi orqali xolis boholarish imkoniyatini qo‘lga kiritadi. Uvaysiyning lirikasida qanday kichinmalar tasverlangan degan savollarga ushbu interfaol metod orqali o‘rganilsa bola ongiga tez tasir etadi. O‘quvchilarga metod orqali o‘rgatishdan oldin. Ularga shoira g‘azallarida lirik qahramon kim uning ruhiy kichinmalari haqiqida tushuncha beramiz.

Uvaysiy she’riyati ruhiy tahlilning nihoyatda chuqurligi bilan ajralib turadi. Uning devonida ham “Isi” radifli 7 baytdan iborat g‘azal bor. U ham ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan. Navoiy, Amiriy, Furqat g‘azallaridan farqli ravishda unda fikr bir-biriga zid holat vasl va hajr tuyg‘usi haqidi boradi. Uvaysiyning hodisalarga yondashishi, talqin etishi o‘ziga xos. Jumladan, ushbu g‘azalda vasl holati tasvirga olingan. Lirik qahramon vaslga erishgan. Ammo, u “shodmonliqda g‘amginlikni unutmang” aqidasiga amal qiladi.

Hozirda vasl og‘ushida bo‘lsada, hijron haqida eslaydi. Uning riyozatlarini xotirlaydi. Unutmaydi. Ushbu g‘azalda shoira mahoratining ikki qirradi ko‘rinadi:

1. O‘zi yaratayotgan timsolning ichki olamini chuqur talqin eta olish;

2. Soʻzlarni tanlash va qoʻllashdagi oʻziga xos noyob isteʼdodini namoyon etish.

Uvaysiy gʻazalidan shoira koʻzlagan muddao boshqa shoirlarning mazkur radifli asarlaridan farqlanmaydi. Ammo, uslub, mahorat, poetika nuqtai nazaridan keskin farkanuvchi qirralar bisyor.

Avvalo, shoira asarida ayollarga xos teran mushohada yaqqol koʻzga tashlanadi. Shoira uslubiga xos chuqur ruhiy tahlil, hayot mohiyati, inson ruhiyatini anglashga intilish, soʻzlar zamiridagi hayotni, dardlarni uygʻotib qoʻllay olish sanʼati yaqqol namoyon boʻladi. Ayniqsa, qofiya tarzida tanlangan soʻzlar bu borada alohida ahamiyatga molik. Nazarimda, sheʼrdagi qofiya xuddi shunday vazifani bajaradi. Unda ham sheʼrning butun quvvati jamlanadi va sheʼrxon qalbi moʻljalga olinadi. Qofiya uchun muvaffaqiyat bilan tanlangan ana shunday oʻtkir soʻzlar sheʼr va shoir maqomini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Mazkur gʻazaldagi qofiyalar xuddi ana shunday vazifani bajarishga bexato yoʻnaltirilgan soʻzlardir. Shoiraning mazkur gʻazali nazira shaklida yaratilgan. Shu sababli, maʼlum maʼnoda oʻzi taʼsirlangan gʻazallarga noziklik bilan, sezdirmay oʻz munosabatini ham bildirib oʻtadi. Jumladan, Amiriy gʻazalida ham ilohiy jamolga, ham majoziy dilbar qiyofasiga chizgilar yaqqol seziladi. Yuqorida keltirganimizdek, vasl Haqdan boshqa hamma narsani unutmoqdir. Ammo, Amiriy gʻazali lirik qahramoni tabiatida bunday yuksak maqomdan chekinish holatlari koʻrinib turadi. Undagi oshiq baʼzan oʻzini unutsa, baʼzan dunyoviy maqomi borasida ham faxr va kibr bilan eslaydi:

Gulshani ayyom eli yuz shukr farmonimdadur,

Kelmagay, yorab, bulardin vardi nofarmon isi.

Yorga aydim: yuzu zulfung asirimen Amir,

Aydikim, keldi bu soʻzdin kufr ila iymon isi.

Shu sababli ham, Uvaysiy oʻz gʻazali matlasida, bizningcha, “vasldan hijron isi keladi” deya salaflari fikriga munosabat bildirib oʻtadi. Chunki tasavvuf lugʻatlarida “Hajr – Haqdan boshqaga zohiriy va botiniy iltifot”, deya sharhlanadi.

Demak, shoira gʻazalining 1-baytini Amiriy gʻazalidagi oshiq holatining, maʼlum maʼnoda, tanqidga olinishi deya qabul qilishimiz mumkin. Chunki Amiriyda vasl haqida soʻzlanyapti. Ammo, dunyoviylikka iltifot unutilmayapti. Shu sababli, Uvaysiy oʻzining chuqur maʼnoli eʼtirozini ifodalayapti:

Keldi vaslingdin netaykim, bu kecha hijron isi,

Ul sabab erdi: tabassumdin kelur giryon isi l.

Ikkinchi misra birinchi misraning biz keltirgan talqini bilan bogʻliq. Hazrati Maxdumi Aʼzam Dahbediy oʻzining “Ruboiylar sharhi risolasi”da soʻzlash va kulishni shunday izohlaydi: “Bilgilki, soʻzlash va kulishdan maqsad ul zotning goʻzal ismlariyu sifatlarining solik qalbida tajalli qilishidir”.

Demakki, vaslga mukammal erishilmagan ekan, tajalli ham toʻliq boʻlolmaydi. Shu boisdan Uvaysiy har bir solik va oshiqqa saboq boʻluvchi chuqur mazmunli fikrni bayon etadi.

Uvaysiy soʻzlarni nihoyatda donishmandlik bilan tanlaydi. Har bir soʻz lirik obraz holatini inkishof etadi. Jumladan, “Ul sabab erdi: tabassumdin kelur giryon isi”²³ birinchi baytning ikkinchi misrasi. “Yigʻi aralash tabassum qilish”ning oʻzi sheʼrxonni lirik qahramon holatiga olib kiradi. Uning tuygʻularini anglashga yaqinlashtiradi.²⁴

Yigʻi maʼnosining, aynan, giryon soʻzi orqali ifodalanishining oʻzida ham, shoira nazarda tutgan chuqur mantiq borligini anglash qiyin emas. Bunday aniqlik bilan holat suratini chizib bera olish Uvaysiyning shoira sifatidagi oʻziga xos mahorat qirralaridan biridir.

Amiriy gʻazalida vaslga erishganlik haqida masrurlik bilan kuylanadi. Ammo, Uvaysiyda bu holat butunlay farq qiladi. Uning lirik qahramoni oʻzi koʻtarilgan maqomdan qanoatlanmaydi. Amiriy asarida masrurlik ruhi ustuvor boʻlsa, Uvaysiyda mahzunlik ustuvor.

²³ Ahmedov S. va boshqalarning 7-sinf darsligida (-T.: “Maʼnaviyat”, 2005) va boshqa ilmiy adabiyotlarda ikki xil boʻlishi aytiladi.

Mashrab tal'atidagi ishq maqomining yuksakligini ta'kidlash maqsadida, rivoyatlardan birida, "Oh deganda nafaslaridan qovurilgan go'shtning bo'yi kelardi", deyilgan. Uvaysiy g'azalining ikkinchi baytida ham xuddi ana shunday maqomdagi oshiq holati o'ziga xos ifodasini topgan. Garchi u Majnun kabi, dili ishq g'ami bilan to'lgan bo'lsada, la'lining shavqida yurak-bag'ri qovurilgan, iztirobda. Mazkur baytda shoira so'zlarni turli ma'no tovlanishlarini e'tiborda tutib qo'llagan. Jumladan, La'li so'zi Majnun bilan yonma-yon ishlatilganligi sababli Layliga ishorani ham bildiradi. Undan tashqari, la'ning lab ma'nosidan kelib chiqib, zohiriy ishtiyoq va ramziylik bilan bog'lab, ko'ngildagi ilohiy tajalliga ehtiyojmandlik ma'nolarida ham qabul qilishimiz mumkin. Ikkinchi misradagi bag'ir va biryon so'zlaridagi undoshlar uyqashligi ohangdorlikni va mazmuniy mutanosiblikni ta'minlagan.

Ishqning ibtidosi oshiqlik, intihosi vasl. Ammo shoira asarida vasl ishq intihosi emas, balki uni yanada olovlantiruvchi cho'g' sifatida namoyon bo'ladi. Lirik qahramon Majnun maqomidagi oshiq. Uning dili ishq g'ami bilan limmo-lim. Bag'ri esa tajalli shavqida qovurilgan. Oshiq o'zining ushbu holatini gul ochilganda bulbulning xonishi yanada avj olishi bilan qiyoslaydi. Vaslga yetganda ham ishqning otashin pardalarida fig'onu nolalari baralla taralishini ta'kidlaydi:

Gar tabassum etsa gul, bulbulga orom o'lmagay,

Lablaring to xandadur, mendin kelur afg'on isi.

Mazkur g'azal zohiran qaraganda, oshiqning majoziy vasl va hajr tuyg'ulari izhori sifatida taassurot qoldiradi. Ammo, Uvaysiy uslubidan kelib chiqib, chuqurroq yondashsak, asar ilohiy ishq va tajalli falsafasini o'zida mujassamlashtirgan murakkab ramziy ma'nodagi asar ekanligini anglaymiz. Shoira orifona g'oyalarini ifodalashda ko'p ramziy timsollarni qo'llaydi. Vasl, tabassum, la'l, subh, rayhon, gul, bulbul, lab, Yusuf kabi timsollar shular jumlasidandir.

Lirika mudom ruhiy kechinma va ong yaxlitligiga intilishi. Tuyg'u hamda tafakkurda namoyon oniy kayfiyat tasviri lirikaning ustuvor xususiyati. Binobarin, ijtimoiy voqelik va hayot falsafasidan sizib chiqadigan hissiy ilg'am psixologik ifodani markazlashtiradi. Aniqrog'i, kuchli ma'naviy-intellektual qamrov she'riy

aqida tabiatini dalolatlaydi. Badiiy idrok sirasida yaxlitlashadigan holat manzarasi – ijod mag‘zi. Unda inson ahvoli-ruhiyasi e‘tirofi, istig‘fori, muhokamasi va tahlili yetakchilik qiladi. His qilish, tuyish, anglash va idrok uning tayanch nuqtalari. Ko‘ngil sarhadlarida kechayotgan tug‘yonlar zamzamasini she‘r butunligini ijod tovlanishlari silsilasini esa ifoda darajasi tayin etadi. Shoiraning manzumalari badiiyati o‘ziga xosligi shundaki, u hayotiy tafsilotlarga muhim ijtimoiy, falsafiy hamda estetik mazmun yuklash vositasida tuyg‘un kechinmalar manzarasini hosil qiladi. Shoiraning hayotda kechinmalari qiyinchiliklari judoliklari shoirani lag‘zaga soldi . U farzandidan ajralgandan onaning ruhiy kechinmalarini shu qadar yozganki ona sog‘inchi , qayg‘ularini aka ettirgan. Hissiy idrokda mavjlanadigan tuyg‘ular silsilasi ruhiy tasavvurlarni intellektual taassurotlarga yo‘naltiradi.

O‘quvchilarga ushbu malumotlardan so‘ng yanada yaxshiroq o‘rgatish uchun interfaol metodlardan foydalanamiz.

“Ko’ngul dog’ o’ldi, dog’ o’ldi” radifli g’azali

Zamona kufatidin bu ko’ngul dog’ o’ldi, dog’ o’ldi,

Bu charxi bemuruvvatdin ko’ngul dog’ o’ldi, dog’ o’ldi.

Jarohat bo’ldi bag’rim tig’l bedodi raqiblardin,

Bu ko’tohfahm mardumdin ko’ngul dog’ o’ldi, dog’ o’ldi.


Bu gulzori fano ichra mahali bexalal yo’qtur,

Hamisha zaxmi xorodin ko’ngul dog’ o’ldi, dog’ o’ldi.

**“Dog’ o’ldi , dog’ o’ldi” g’azalidan lirik
qahramon ruhiy kichinmalarini
aniqlang**



5 ta bilganim metodi



Ushbu gazaldan quyqagiday ma'lumotlarni bilib olishi mumkin o'quvchilar.

Zamona kulfatidin bu ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi,
Bu charxi bemuruvvatdin ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi.

Jarohat bo'ldi bag'rim tig'i bedodi raqiblardin,
Bu ko'tohfahm mardumdin ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi1.

Uvaysiy lirik qahramoni atrof-muhitdan, zamondoshlaridan qanoatlanmaydi. Mazkur g'azalda ko'ngullar to'qnashuvidan, ruhiy ziddiyatlardan tug'ilgan tuyg'ular o'z ifodasini topadi. Shoira dunyoning, jamiyatning g'alayonli, to'fonli munosabatlari manzarasini ta'sirli chizib bera olgan.²⁵

Asar ko'ngil jarohati haqida. U kuchli ruhiy g'alayon mahsuli. Uning sababchisi esa zamona kulfati, bemuruvvat charx, kaltafahm va yovuz so'zli kishilardir. Asar bu sitamgarlardan jarohatlangan ko'ngil hayqirig'i bo'lib dunyoga

²⁵ А.Қаюмов. Қўқон адабий муҳити –Т: 1961, 247-бет.

kelgan. Unda qofiya yo‘q. Shu sababli radifning ushbu she‘rdagi o‘rni muhim maqomga ega. U lirik qahramonning butun fig‘onu nolasini keng qamrovda o‘zida mujassamlashtirgan. “Ko‘ngul dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi” jumlasida radif vazifasida kelgan. U lirik qahramon ruhiy holatining kul minatsiyasini ifodalay olgan. Shu sababli o‘quvchi e‘tibori ushbu jumlagaga qaratilgan. Lug‘atlarda izohlanishicha, “dog‘” so‘zining bir nechta ma‘nolari bor. Kuyuk, kuygan joy, qoralik, belgi, iz, qayg‘u kabilar shular jumlasidandir. Uvaysiy iste‘dodining tabiatidan kelib chiqib, g‘azalda ushbu so‘zning bir nechta ma‘nosini nazarda tutib qo‘llaydi. “Dog‘ o‘ldi” iborasi, birinchidan, lirik qahramon ko‘nglidagi zaxmu jarohat izlarini ifodalasa, ikkinchidan, ko‘ngilning g‘amu anduxda qovurilganligi, dog‘langanligi haqida ham xabar beradi.

«Fikriy hujum» metodi

Uvaysiyning “sog‘indim” radifli g‘azalida lirik qahramon kim?
Ushbu savolga o‘z fikringizni bildiring.

Bu metod o‘quvchilarning mashg‘ulotlar jarayonida faolliklarini ta‘minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag‘batlantirish hamda bir xil fikrlashdan ozod etish muayyan mavzu yuzasidan rang-barang g‘oyalarni to‘plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish, yechish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo‘lgan fikrlarni yechishga o‘rgatish uchun xizmat qiladi. «Fikriy hujum»

metodi.²⁶ A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan bo‘lib, uning asosiy tamoyili va sharti mashg‘ulot (bahs)ning xar bir ishtirokchisi tomonidan o‘rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo ta’qiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni rag‘batlantirishdan iboratdir. Bundan ko‘zlangan maqsad ta’lim oluvchilarning mashg‘ulot (bahs) jarayonidagi erkin ishtirokini ta’minlashdir. Ta’lim jarayonida ushbu metoddan samarali va muvaffaqiyatli foydalanish o‘qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko‘lamining kengligiga bog‘liq bo‘ladi. «Fikriy hujum» metodidan foydalanish chog‘ida ta’lim oluvchilarning soni 15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodga asoslangan mashg‘ulot bir soat tashkil etilishi mumkin.


«Yalpi fikriy hujum» metodi

Bu metodda 30ta o‘quvchi ishtirok etadi. Ular 3 ta guruhga bo‘linadi.

- 1- Guruh ishtirokchilari: Uvaysiy
- 2- Guruh ishtirokchilari:Nodira
- 3- Guruh ishtirokchilari:Amiriy


²⁶ Увайсий шеърятдан. Тузувчи М.Қодирова.–Т: 1980,95-бет.

1- Uvaysiy guruhiga savol




“Uvaysiyman” radifli g’azalida shoira nima uchun barchadan ko’zni yumibgina muddaoga yetishini aytadi?

2-Nodira guruhiga savol.



Dunyodan uzilib, dilni xudo sari band qil deganida nimani nazarda tutgan: tarki dunyo qilishnimi yoki mol-dunyoga berilib, butunlay Xudoni, iymon va vijdonni unutmaslik ma’nosinimi?

3-Amiriy guruhiga savol.




Ilohiy ishqda o'rtanayotgan oshiqning kechinmalari nima uchun yer-u ko'kni larzaga solidi.

Mazkur metod J.Donald Filips tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uni bir necha o'n (20, 40 va 60) nafar ta'lim oluvchilardan iborat guruh (sinf)larda qo'llash mumkin. Ushbu metod ta'lim oluvchilar tomonidan yangi g'oyalarning o'rta tashlanishi uchun sharoit yaratib berishga xizmat qiladi. Har bir 5 yoki 6 nafar ta'lim oluvchilarni o'z ichiga olgan guruhlariga 15 daqiqa ichida ijobiy xal etilishi lozim bo'lgan turli xil topshiriq yoki ijodiy vazifalar beriladi. Topshiriq va ijodiy vazifalar belgilangan vaqt ichida ijobiy xal etilgach, bu haqda guruh a'zolaridan biri axborot beradi. Guruh tomonidan berilgan axborot (topshiriq yoki ijodiy vazifaning yechimi) o'qituvchi va boshqa guruhlar a'zolari tomonidan muhokama qilinadi va unga baho beriladi. Mashg'ulot yakunida o'qituvchi berilgan topshiriq yoki ijodiy vazifalarning yechimlari orasida eng yaxshi va o'ziga

xos deb topilgan javoblarni e'lon qiladi. Mashg'ulot jarayonida guruh a'zolarining faoliyatlari ularning ishtiroklari darajasiga ko'ra baholab boriladi.

“Venn diagrammasi”metodi

Bu metodda Uvaysiy va Nodira hayoti va ijodida qanday bog'liqlik bor?



2.2 Uvaysiy g‘azallarida qo‘llanilgan badiiy san’atlarni o‘rganish usullari


Uvaysiy g‘azallarida qo‘llanilgan badiiy san’atlarni o‘quvchilarga oson o‘rgatish usullari qo‘llash kerak. Eng avvalo, o‘quvchilarga badiiy san’at haqida gapirib o‘tamiz. Adabiyotdagi badiiy tasvir, ifodalilik va xushohanglik vositalari badiiy san’atlar deyiladi. Sharqda she’riyat asosiy janr bo‘lganidan ko‘pincha she’r san’atlari tushunchasi ham badiiy san’atlar ma’nosida qo‘llaniladi. Matnda ma’noni teranlashtiradigan, ko‘pma’nomlilikni yuzaga chiqaradigan, ta’sirchanlik yaratadigan xilma-xil badiiy vositalar bo‘ladiki, ularni ko‘pincha matn ma’no-mazmuniga ko‘ra idrok etamiz. Bular-ma’naviy san’atlardir.degan nazariy ma’lumotlarni aytamiz.

Badiiy san’atlar – o‘quvchi uchun adabiyot nafosati va sehrlarini idrok etish maktabi bo‘lsa, havaskor shoira uchun mahorat saboqlaridir. Bularni bilgan kitobxon she’riyatimizdan chinakam boy badiiy – hissiy lazzat oladi; Shoira yuqori mahoratli so‘z san’atkorlari bo‘lib yetishadilar.²⁷

Uvaysiy she’riyatida badiiy san’atlarning o‘rganish jarayonida interfaol metodlardan “Klaster” metodidan foydalanib o‘rgatsak bo‘ladi . O‘quvchilarga badiiy san’atni tushuntirish jarayonida doskaga biron o‘quvchini chiqarib, doskaning o‘rtasiga klaster chizdiramiz so‘ng uning ichiga Uvaysiy she’riyatida keng qo‘llangan she’riy san’atlar deb yonlariga masalan, mubolag‘a, tashxis, tashbeh, tajniz, tanosub, irsolimasal va boshqa san’atlar nomlarini o‘quvchiga bir- bir yozdiramiz. Uni yozib bo‘gandan so‘ng o‘quvchilarga klasterda ko‘rsatilgan har bir g‘azalga shoir she’rlaridan misollar keltiramiz. Bu ham o‘quvchini zehni oshirish bilan bir qatorda uni sinchikovligini ta’minlashga yordam beradi.

²⁷ У.Тўйчиев. Оқ шеър. Қаранг: Адабий турлар ва жанрлар. 3 жилдлик. 2-жилд. Лирика. –Т: Фан, 1992, 208-бет.

“Klaster” metodi



Oʻquvchilarga “ Klaster” metodidan soʻng yana bir metodni qoʻllash mumkin. Bu metod “Ikki qisimli kundalik” metodi boʻlib, Uvaysiy gʻazallaridan badiiy sanʼatlarini topishda ushbu metoddan foydalanishimiz mumkin. “Ikki qisimli kundalik” metodining birinchi qismida shoira gʻazallaridan baytlar keltiriladi, ikkinchi qismida esa qaysi badiiy sanʼatdan qoʻllanilgan boʻlsa shu badiiy sanʼat yoziladi. Ushbu metodni oʻquvchilar yaxshi tushunishi uchun gʻazalning birinchi va ikkinchi baytlarini ikki qisimli kundalikka yozamiz. Oʻquvchilar shunga qarab gʻazalda qoʻllanilgan badiiy sanʼatlarni topishadi.

Namuna sifatida doskaga ikki qismli kundalikning jadvalini chizamiz, birinchi va ikkinchi baytlarni shu jadvalga yozamiz, qolganlarini o‘quvchilarga vazifa qilamiz.

“Ikki qismli kundalik” metodi

<p>Bu kun, ey do‘stlar, farzandi jononimni sog‘indim, Gado bo‘lsam ne ayb, ul shohi davronimni sog‘indim.</p>	<p>Gado shoh –tazod san’ati Ey do‘stlar – nido san’ati</p>
<p>Musofirman, g‘aribman, bekas-u ham benavo durman, Vujudim dardg‘a to‘ldi, emdi darmonimni sog‘indim.</p>	<p>Musofir, g‘aribman – Tanosub Dard, darmon - Tazod</p>
<p>Tilimning zikri-yu, ko‘nglimning fikri, yaxshi farzandim, Azizim, yolg‘izim, davlatli sultonimni sog‘indim.</p>	
<p>Kecha-kunduz yo‘lig‘a muntazirdurman, tikarman ko‘z, Kelib holim so‘ribon ketsa, mehmonimni sog‘indim.</p>	
<p>Nasibin uzradi tangri, ilojin topmag‘ay kelsa, Onam deb bo‘lg‘usi bag‘ri qizil qonimni sog‘indim.</p>	

<p>Qorong‘u bo‘ldi olam ko‘zima ushbu judolikdin, Ko‘z-u ko‘nglum ziyosi mohi tobonimni sog‘indim.</p>	
<p>Mani bekas Uvaysiy, yig‘lagayman ro‘z-shab tinmay, Uyimning ziynati, ko‘z ravshani, xonimni sog‘indim.</p>	

Ruboiy va g‘azallarni o‘rganish jarayonida izohlanishi zarur bo‘lgan so‘zlar lug‘atini o‘quvchiga qay tarzda yetkazish samarali? Albatta, ta’limiy o‘yindan foydalangan holda yetkazish qulayroq. Lug‘at ustida ishlash jarayonida “Izohtalab so‘z” deb nomlangan ta’limiy o‘yindan foydalanish mumkin. ²⁸Har bir o‘quvchiga yakka tartibda ruboiy yoki g‘azal matni beriladi. Izohtalab so‘zlar quyidagi jadvalga joylashtiriladi. Izohtalab so‘zlarning barchasi aniqlangan holatda o‘quvchi ikki ball bilan baholanadi, topshiriq nihoyasiga yetmagan bo‘lsa bir ball bilan kifoyalanadi. So‘zlar izohi o‘qituvchi tomonidan beriladi.

	Izohtalab so‘z	Izohi	Ball
	Xorobotin	Bu yerda so‘fiy maskani	
	Bargoh	Faqir so‘fiylar ishq ahlining manzilgohi.	
	Sahl	Yengil oson	
	Benavo	Baxtsiz sho‘rpehona	

Izohlangan so‘zlar yordamida ruboiy, g‘azal mazmuni sharhlanadi, g‘oyasi haqida fikr-mulohaza yuritiladi. Ana’naviy usulda lug‘at bilan ishlash jarayonida o‘quvchi darslikda matn so‘ngida berilgan so‘zlarning tayyor izohi bilan tanishadi. Noan’anaviy usul vositasida o‘quvchi diqqati berilgan matndagi izohtalab so‘zga

²⁸ Увайсий. Қўнгул гулзори.–Т, 257-бет.

qaratiladi. O‘quvchida matndan o‘zi uchun ma’nosi notanish bo‘lgan so‘zni ajrata olish ko‘nikmasi shakllanadi. Lug‘at so‘zlarni yod olish malakasi, so‘z boyligi ortadi. Lug‘at bilan ishlash jarayoni shu matn mazmunini o‘zlashtirishda yetakchi hisoblanadi.

O‘quvchilarning g‘azal tahlilini samarali o‘zlashtirishlari, tahlil malakasiga ega bo‘lishi, Uvaysiy g‘azallarida badiiy san’at turlarini anglashi uchun quyidagi usulni qo‘llash ham yaxshi natija beradi. 7-8-9-sinflarda g‘azal tahlilida “Mumtoz adabiyot bilimdoni” usulidan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu usul jadval asosida amalga oshiriladi.²⁹ G‘azal tahlilida bu usuldan foydalanish mavzuning tizimli ravishda sodda va oson o‘zlashtirilishiga imkon yaratadi. Har bir o‘quvchiga quyidagi ko‘rinishda jadval tarqatiladi. Avvalgi darslarda o‘quvchi g‘azal tahlili jarayoni bilan tanishganligi sababli o‘z bilimga tayangan holda jadvalning uy vazifasi qismini mustaqil to‘ldira oladi. Jadvalda ko‘rsatilgan vazifalar to‘liq bajarilganda o‘quvchi “5” ball bilan baholanadi. Jadvalning 1-2-3-4-5-bosqichlari uy vazifasini so‘rash jarayonida to‘ldiriladi. Yangi mavzu yuzasidan 6-7-8-bosqichlardagi qatorlar to‘ldiriladi. Jadval jami “5” ball bilan baholanadi.

	O‘quvchining ismi familiyasi:				
1	Uy vazifasi	She’r janri g‘oyasi		1 ball	
2		Qofiyalanish tartibi			
3		Qofiyadosh so‘zlar			

²⁹ Adabiyot (majmua). Akademik litseylarning 2-bosqichi o‘quvchilari uchun / To‘xliyev B., Mirsamigova R., Ametova O. – T.: Bayoz, 2014. – B.3-141

4		Radif			
---	--	-------	--	--	--

5		“Izohtalab so‘zlar” izohi		1ball	5 ball
6	Yangi	She’r tabdili		1 ball	
7	Mavzu	G‘azal mazmuni tahlili		1 ball	
8	Mustahkamlash	She’riy san’atlar		1 ball	

G‘azal tahlili jarayonida o‘quvchi tizimli ravishda ishlash ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. Mustaqil ishlash, erkin fikrlashga o‘rganadi. Noan‘anaviy usul vositasida tahlilning amalga oshirilishi o‘quvchini “Mumtoz adabiyot bilimdoni”ga aylantiradi. Ballar o‘qituvchi nazoratida qo‘yiladi.

Darsni yanada mustahkamlash uchun “Charxpalak” metodidan ham foydalanish mumkin. Bu metodda har bir guruh yoki istagan o‘quvchilar bahslashadilar. Bunda bir o‘quvchi ma’lumot aytadi keyingisi davom etadi. To‘xtab qolgan o‘quvchi yutqizadi. Ushbu metod dars samaradorligini yanada oshiradi. Barcha nazariy ma’lumotlar mustahkamlanadi. G‘olib bo‘lgan o‘quvchi rag‘bat bilan taqdirlanadi. Bulardan tashqari “She’riy san’atlar sehri” usulidan foydalanish o‘quvchilarning ruboiy, tuyuq, g‘azal yoki muxammasda qo‘llangan she’riy san’atlarni nazariy jihatdan o‘rganish, ularni bir-biridan ajrata olish ko‘nikmasini shakllantirib, badiiy didni tarbiyalaydi. Turli tasvir vositalari timsollar xarakterining ochib berilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Mahorat bilan qo‘llangan she’riy san’atlar o‘quvchida shu shoira ijodiga qiziqish uyg‘otadi. 7-sinfda g‘azal tahlili bilan tanishgan o‘quvchilar 8-9-sinflarda ham g‘azallarga qiziqadi. Undagi badiiy san’atni o‘rganishga harakat qiladi. O‘quvchilarda mumtoz adabiyot namunalarini mustaqil tahlil qilish, uning asl ma’nosini ilg‘ay olish

ko‘nikmasi shakllanadi. Tahlil jarayoni tengdoshlari bilan birgalikda amalga oshirilsa, do‘stona munosabat vujudga keladi. O‘quvchi hamkorlikda muammolarni hal etish, o‘z fikrini erkin bayon etishga o‘rganadi.

O‘rganilayotgan asardagi timsollar, tarbiyaviy ahamiyatga ega she‘rlarni tahlil qilishda “Adolat tarozisi” usulidan foydalanish yaxshi samara beradi. Bu usulda badiiy san’at tahlilida foydalanish mumkin. Bunda she‘rdagi insonga xos fazilatlar, yoxud buning aksi she‘r mazmuni, g‘oyasiga tayanib, “Adolat tarozisi”ga solinadi. O‘quvchilarda mushohada yuritish, mustaqil fikrlash ko‘nikmalari shakllanishi bilan birga, ularning shoir ijodida ilgari surilgan g‘oyaga munosabati anglashiladi.

Uvaysiy ijodini o‘rganish jarayonida axborot kommunikatsion texnologiyasi, slayd, audiomatnlar, videoroliklardan foydalanish dars samaradorligiga katta hissa qo‘shadi. Dars jarayonida rasmlar va ko‘rgazmali qurollardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi.³⁰

Dars jarayonida “Slayd” dan foydalanish o‘quvchi tomonidan o‘zlashtirish samaradorligining oshishiga xizmat qiladi. O‘qituvchi tomonidan mavzularga mos holda slaydlar tayyorlanishi o‘qituvchidan izlanishni talab qilib, o‘quvchilarning esa chuqur bilim egallashlariga zamin yaratadi. “Slayd” vositasida o‘rganilayotgan mavzuga oid ma’lumotlar, yangiliklar o‘quvchi ko‘z o‘ngida jonlanadi. Tayyorlangan har bir slayd o‘qituvchini izlanishga chorlaydi, uning ijodkorligini rivojlantiradi. O‘quvchi eshitganda 10%, ko‘rganda 30%, muhokama va bahs-munozara jarayonida 70% ma’lumotlarni o‘zlashtiradi. Bu jarayon dars davomida tengdoshlari bilan birgalikda amalga oshsa, o‘quvchining bilim samaradorligi 90% ni tashkil etadi.

Klaster – “axborotlarni yozish”. “Klaster” – inglizcha so‘z bo‘lib, g‘uncha, bog‘lam ma’nosini anglatadi. Axborotlar klasterlarga ajratish interfaol pedagogik strategiya bo‘lib, u ko‘p variantli fikrlashni, rag‘batlantirish uchun qo‘llash


³⁰ Qarang: Yo‘ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua. – T. Sharq, 2013. – B.161-215

mumkin. Asosan, u yangi fikrlarni uygʻotish va muayyan mavzu boʻyicha ancha fikr yuritishga chorlaydi. Klaster tuzish ketma – ketligi quyidagicha:

1. Sinf yozuv taxtasi oʻrtasiga katta qogʻoz varagʻiga asosiy soʻz yoki gapni yozing;
2. Sizni fikringizcha bu mavzuga tegishli boʻlgan soʻzlar yoki gaplarni yozing (“aqliy hujum”) oʻtkazing;
3. Tushuncha va gʻoyalar toʻgʻrisidagi oʻzaro bogʻlanishni oʻrgating.
4. Eslagan variantlaringizning hammasini yozing.

Akademik litsey taʼlimida Uvaysiy hayoti va ijodini “KBI” (kuzatish, bahslashish, ishontirish) metodi orqali oʻrganish.

“KBI” (kuzatish, bahslashish, ishontirish) Bahs munozara uslubiga asoslangan mashgʻulot. Oʻquvchilarning hayotda faol oʻrnini topishi, ularda peshqadamlik va sardorlik sifatlarini tarbiyalash, jamoada ishlash koʻnikmalarini shakllantirish, oʻzgalar fikrini hurmat qilishga oʻrgatish, dalillar keltira olish, oʻz fikrini isbotlash, asoslash va ishontirish uchun izlanish qobiliyatlarini rivojlantiradi.



Birinchi topshiriq

O`tilgan mavzu Alisher Navoiy va yangi mavzu Uvaysiyning hayoti va ijodi borasida tarqatmalar va ularga tezkor javoblar. “obrazlar tilga kirsas”, “Aqliy hujum”

1-guruh – “Bo‘ston”

2-guruh – “Go‘zal”

3-guruh – “Ko‘ngul”

Tarqatmalar :1.Quyidagi obrazlarga ta’rif bering?

Iskandar.

Gado.

Ona.

Arastu.

Doro

2.Aleksandr Makedonskiy va Iskandar obrazi o‘rtasidagi bog‘liqlik haqida nimalarni bilasiz ?

3. ”Xamsa”dagi bosh obrazlarni ayting.

4.”Saddi Iskandariy”da qaysi davlatlar aks etgan?

5. Saddi Iskandariy ” dostoni qachon yozilgan?

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Uvaysiy qaysi taxallus bilan she’rlar yozgan?

2. Uvaysiyning qaysi g‘azalida badiiy san’at ko‘p qatnashgan?

3. Navoiy va Uvaysiy haqida nimalr bilasiz?

Tashabbuskor guruh tuzish mumkin. U munozara davomida aytilgan fikrlar, dalillar, aslosiy tushunchalar, vaziyatdan chiquvchi holatlar, qiziqarli javoblar, mulohaza va takliflarni kuzatib doska yoki vatman qog‘oziga yozib boradi. Bahs munozaraning borishini nazorat qilib qatnashchilarni faollashtiradi. Ba’zilariga tanbehlar berishi mumkin. Bu guruh mashg‘ulot xulosa qismida o‘z munosabatini bildiradi. Mashg‘ulotga o‘qituvchi yakun yasaydi va o‘z fikr mulohazalarini bildiradi.

Ta'lim bilan bir qatorda mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi: jamoa bilan ishlash mahorati; muomalalik; xushfe'llik; ko'nikuvchanlik; o'zga fikriga hurmat; faollik; rahbarlik sifatlarini shakllantirish; ishga ijodiy yondashish; o'z faoliyatining samarali bo'lishiga kiziqish; o'zini xolis baholash.

Har bir she'rni janr sifatida tasniflashda ma'lum belgilar inobatga olinadi. Ammo, lug'zni hajm, vazn, qofiya, radif nuqtai nazaridan kuzatsak, xos xususiyatlar ko'zga tashlanmaydi. Demak, lug'zni alohida janr deb qarash haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Uni she'riy san'atlardan biri deb qarash to'g'riroqdir.

Uvaysiyning g'azallari va chistonlariga 1soat ajratilgan bu soatlar Uvaysiyning ijodini o'rganishga juda ham kamlik qiladi. Bundan tashqari 7-sinf uchun g'azallarni tushunish ancha murakkablikni tashkil qiladi. Shuning uchun 3soat berilganda 1soatda hayoti va ijodini 1soatda esa uning g'azallarini tahlil qilinsa yana 1 soatda esa chistonlarni o'rganish va barchasini takrorlab mustahkamlab olish lozim. Uvaysiyning chistonlari juda ham qiziqarli maktab darsligidan boshqa chistonlarini topib guruhlar o'rtasida musobaqa darslarini o'tkazsa ham juda yaxshi samara beradi. Hatto ayrim o'quvchilar shoirning kim ekanligini va biz amaliyot paytimizda bu ayolmi erkak degan savollar ham berildi. Bu qanchalik ayanchli ekanligini tasavvur qilish qiyin. Shuning uchun ko'proq metodlar qilganda shoirlarning rasmlarini doskaga ilib qo'yish lozim. Biz shuning uchun rasmlardan foydalanib dars o'tdik.

Uvaysiyi mazkur g'azalga taxmis bog'lashga rag'batlantirgan ma'lum sabablar bor, albatta. Bizningcha, avvalambor, g'azaldagi topqirlik bilan qo'llang'an timsollardan, noyob badiiy tasvir vositalaridan navoiyvor o'ziga xos uslubda foydalanish tamoyillari shoira e'tiborini tortgan bo'lsa, ikkinchidan, asar kompozitsiyasidagi ma'lum darajadagi parokandalik shoiraga asarni yanada kengaytirish, ruhiy holag tasvirini yanada aniqlashtirish fikriga kelishga asos bergan bo'lishi mumkin. Albatta, shoira taxmisidagi fikrlarning mantiqiy

uzviylashuvi, timsollar tabiati va qiyofasining yanada teran talqin etilganligi bunday xulosaga kelishimizga asos bo‘ladi.

O‘quvchilar yuqori berilgan Uvaysiy g‘azallaridagi badiiy san’atlar haqida tushuncha hosil qilganidan so‘ng hamma tushunganlarini va tushunmaganlarini ushbu jadvalga tushiradi. Bu jadvalni o‘qituvchi ko‘rib chiqadi, tushunmaganlari haqida doskaga yozadi yoki tushunmagan o‘quvchi bilan ishlaydi. O‘quvchilarga yana biro son yo‘li metodlar orqali yoki vedio orqali tushuntirishimiz mumkin.

III BOB. TAJRIBA-SINOV ISHLARI VA ULARNING NATIJALARI.

3.1. Uvaysiy hayoti va ijodini o‘rganishda interfaol metodlarning o‘rni mavzusi yuzasidan tajriba-sinov materiallarining tavsifi.

Men 2018-yil 12-fevralidan 28-apreligacha bo‘lgan davr mobaynida filologiya fanlari nomzodi Tozagul Matyoqubova rahbarligida TDIU qoshidagi akademik litseyda malakaviy pedagogik amaliyotni o‘tadim. Pedagogik amaliyot davomida akademik litseyda o‘z kasbining mohir ustalari, ijodkor o‘qituvchilarning darslarini kuzatdim, ularning nazorati ostida bo‘ldim. Jumladan, oliy toifali o‘qituvchilar G. Raxmanova, G.Hamidovalarning, bevosita rahbarligida o‘n bir hafta men uchun kata maktab bo‘ldi.

Pedagogik amaliyot davomida men bitiruv malakaviy ishim bo‘yicha bir qator tajriba-sinov ishlarini amalga oshirdim. Unda o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga o‘rgatishga oid bir qator vazifalar 1-2-3- kurs o‘quvchilari bilan amalga oshirildi.

1.Dars jarayonida multimediyaviy vositalari ishlatildi.Unda mavzuga oid video lavhalar, materiallardan unumli foydalanildi.

2.Darslarda muammoli ta’lim metodlaridan, jumladan, muammoli vaziyatdan foydalandim.

3. Ona tili darslarini adabiyot darsi bilan bog‘lab o‘tishga harakat qildim. Adabiyot darslarini esa musiqa, rasm darslari bilan integrallashga harakat qildim. Masalan, “Uvaysiy hayoti va ijodi” mavzuda o‘tgan ochiq darsimda shoiralarning g‘azallari o‘quvchilar tomonidan ijro etildi va tahlil qilindi.

4.Amaliyot davomida o‘zim dars o‘tayotgan guruhlarda „8-mart“, „Navro‘z“ bayramlari munosabati bilan ijodiy insho o‘tkazdim.

Tajriba-sinov ishlarini olib borish uchun litsey „Ona tili“, „Adabiyot“ darsliklari materiallarini o‘tish yuzasidan dars ishlanmalari , tavsiyalar tayyorlandi.Nazorat guruhlarida darslar darslik qolipi va o‘qituvchilarning ijodiy yondashuvi asosida tashkil qilindi. Quyida yakka tartibda ishlash metodi asosida tashkil qilingan dars ishlanmalarimizdan namunalar keltiramiz.

O‘quv mashg‘ulotining ta’lim texnologiyasi modeli

Mashg‘ulot vaqti-80 daqiqa O‘quvchilar soni: 30 nafar

O‘quv mashg‘uloti shakli va turi Nazariy-amaliy: yangi bilimlarni egallash bo‘yicha o‘quv mashg‘uloti, egallangan bilimlarni mustahkamlash;

O‘quv mashg‘ulotining rejasi: 1.Kirish. Uyga vazifani tekshirish.

O‘quv mashg‘ulotining ta’lim texnologiyasi modeli

Ta’lim berish texnologiyasi

Mavzu:	Jahon otin Uvaysiy hayoti va ijodi
O‘quvchilar soni: 30 ta	Vaqt: 80 daqiqa
Mashg‘ulot shakli	Amaliy-nazariy dars
Mavzu rejasi:	<ol style="list-style-type: none"> 1. Uvaysiy hayoti va ijodi. 2. Uvaysiy she’riyatining mavzu ko‘lami. 3. Shoir chistonlari.
<p><u>Darsning maqsadi:</u></p> <p><u>ta’limiy maqsad:</u> o‘quvchilarga Uvaysiy hayoti va ijodi haqida ma’lumot berish. Ularni so‘z boyligini va tafakkurini boyitish.</p> <p><u>tarbiyaviy maqsad:</u> o‘quvchi yoshlarni adabiyotga hurmat ruhida tarbiyalash. Ularda insoniylik, rostgo‘ylik, mehr-muhabbat, so‘zga mas’uliyat hissini singdirish.</p> <p><u>rivojlantiruvchi maqsad:</u> o‘quvchilarning dunyoqarashi, fikrlash__ darajasini o‘stirish. Ularda shoir lirikasi va uning mohiyatini yoritishda tushuncha paydo qilish.</p>	
Pedagogik vazifalar:	O‘quv faoliyati natijalari:
<ol style="list-style-type: none"> 1. Uvaysiy hayoti haqida ma’lumot berish 2 Uvaysiy lirikasini o‘rganadilar 	<ol style="list-style-type: none"> 1.Uvaysiy hayot yo’li haqida ma’lumotga ega bo’ladi 2.Uvaysiy lirikasi g’azallarining mohiyati haqida ma’lumotlar beriladi.
<i>Ta’lim berish usullari:</i>	Suhbat, tushuntirish, ko‘rsatish, og‘zaki so‘rov
<i>Ta’lim berish shakllari:</i>	Ommaviy, jamoaviy

<i>Ta'lim berish vositalari:</i>	Darslik, o'quv qo'llanma, proyektor, kompyuter, tarqatma materiallar.
<i>Ta'lim berish sharoitlari:</i>	Kerakli jihozlar bilan ta'minlangan xona
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob

Darsning texnologik xaritasi

<i>Ish bosqichlari, vaqti</i>	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	O'quvchi
Tashkiliy qism (10 daqiqa)	<p>1.1. O'quvchilar uch guruhga bo'linadi, guruhlar nom va sardorlar tanlanadi, mavzu nomi e'lon qilinadi, mazkur mavzuni yoritishda kutilayotgan asosiy natijalar to'g'risida axborot beradi.</p> <p>1.2. Mavzuni yoritish bo'yicha tuzilgan rejalar o'qib eshittiriladi.</p> <p>1.3. Bugungi kutilayotgan dars mashg'uloti muloqot tarzida bo'lishi ta'kidlanadi.</p> <p>1.4. O'quvchilar baholash mezonlari bilan tanishadilar.</p>	<p>Guruhlarga bo'linadilar va tinglaydilar. Yozib oladilar. Tinglaydilar. Tinglaydilar.</p>
O'tilgan mavzuni takrorlash va mustahkamlash	2.1. Huvaydo hayoti va ijodi mavzusi bo'yicha berilgan topshiriq	Javob beradilar va

(15 daqiqa)	soʻraladi. 2.2. Uchala guruhga oʻtgan mavzuga oid nazorat savollari, tahlil uchun mashqlar bittadan beriladi.	topshiriqlarni bajaradilar.
Yangi mavzu bayoni (40 daqiqa)	3.1. Jahon tin Uvaysiy hayoti va ijodi haqida maʼlumotlar beriladi. 3.2. Ekranda mavzu asosidagi slayd namoyish etiladi . 3.3. Uvaysiy lirikasi va gʻazallari tahlil qilinadi.	Erkin bahs-munozara yuritadilar. Savollargajavob beradilar. Tinglaydilar. Oʻqiydilar.
Mustahkamlash va uyga vazifa berish (15 daqiqa)	4.1. Mavzu umumlashtiriladi va umumiy xulosalar yasaladi. Oʻquvchilar bilan oʻrganilgan mavzuni mustahkamlash yuzasidan “Xotira mashqi” texnologiyasi va charxpalak oʻtkaziladi, -takrorlash orqali yangi mavzu mustahkamlanadi. 4.2. Mavzu yuzasidan oʻquvchilar uchun tushunarsiz boʻlgan atama, tushunchalarga qisqacha izoh beriladi. 4.3. Oʻquvchilar baholanadi, uyga vazifa beriladi.	Tinglaydilar. Topshiriqni bajaradilar. Tinglaydilar. Yozib oladilar.

DARS ISHLANMASI

Sana: 4.04.2018

Guruh: AF 62

Fan: Adabiyot

Mavzu: Jahon otin Uvaysiy hayoti va ijodi

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad: o'quvchilarga Uvaysiy hayoti va ijod yo'li yuzasidan o'rta umumiy ta'limda olgan bilimlarni mustahkamlash va kengaytirish. Shoironing sherlarining mazmun mohiyati haqida tushunchalar berish.

Tarbiyaviy maqsad: o'quvchi yoshlarni adabiyotga hurmat ruhida tarbiyalash. Ularda insoniylik, rostgo'ylik, mehr-muhabbat, so'zga mas'uliyat hissini singdirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarning dunyoqarashi, fikrlash_ darajasini o'stirish, ularning og'zaki nutqini rivojlantirish. Ushbu mavzu yuzasidan o'rta umumiy ta'limda olgan bilimlarini mustahkamlash va kengaytirish

Dars turi: Yangi bilim beruvchi va nazorat qiluvchi

Dars jihozi: Yozuv taxtasi, darslik, proyektor, kompyuter, tarqatma materiallar

Dars shiori: *Siz ilmga bor yo'g'ingizni bermaguningizcha, u sizga biror narsa bermaydi (Imom G'azzoliy)*

Darsning borishi:

I.Tashkiliy qism (10 daqiqa):

- a) salomlashish;
- b) davomatni aniqlash;
- d) o'quvchilarni darsga hozirlash;
- c) kun hikmatini keltirish va tahlil qilish (*Hamisha yaragil el xizmatiga, Beshak bo'l olam-u odam zotiga. N.Ganjaviy*).

II. Uyga vazifani so'rash va baholash (30 daqiqa):

O'tgan darsni so'rash uchun mavzusi bo'yicha berilgan topshiriqlar tekshiriladi. O'tgan mavzu bo'yicha savollar beriladi.

Tezkor savol javob

1. Huvaydo nechinchi yil qayerda tug‘ilgan ?
2. Huvaydoning otasining ismi?
3. Huvaydo so‘zining ma‘nosi?
4. Huvaydo qanday kasblar bilan shug‘ullangan?
5. Huvaydo dostonlari
6. Shoirning qanday devoni mavjud?

O‘quvchilar o‘qituvchi bergan savollarga javob beradilar,

III. Yangi mavzu bayoni (20 daqiqa):

Yangi mavzu tushunarli va atroflicha ochib beriladi. Huvaydo hayoti va ijodi haqida ma‘lumot beriladi. Mavzu tushunarli qilib ochib beriladi. Mavzu asosida slayd namoyish etiladi.

Darsning maqsadi:

- a) Ta‘limiy maqsad: o‘quvchilarga Uvaysiyning lirik she‘rlari, devonlari haqida ma‘lumot berish;
- b) Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilar qalbida go‘zallik tuyg‘ularini uyg‘otish;
- c) Rivojlantiruvchi maqsad; o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, mumtoz adabiyotga havas hissini shakllantirish.

Darsning jihozlanishi: Darslik, Uvaysiy suratlari, asarlaridan namunalar, jadvallar, rasmlar, audio va video tasmlar, o‘quv materiali, ma‘ruzalar matni, tarqatma materiallar,

Texnik vositalar: slaydlar, kompyuter jamlanmasi yoki noutbuk, magnitofon, televizor.

Dars usullari:

“Klaster”, “Aqliy hujum”, “Xotira mashqi”, “Venn diogrammasi”, “Ozini o‘zi baholash”.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

II. O‘tilgan mavzuni takrorlash.



O‘quvchilarning o‘tilgan mavzu yuzasidan egallagan bilimlarini takrorlash maqsadida Huvoydo hayoti va ijodi bo‘yicha tuzilgan “O‘z-o‘zingni bahola” so‘rovnomasi tarqatiladi. Bunday usul orqali bir vaqtning o‘zida barcha o‘quvchilarning o‘tilgan mavzuni qay darajada o‘zlashtirganini bilib olish mumkin.

Savollar Javoblar										
Huvoydoning nechta g‘azali bor ?										
Huvoydo qachon tug‘ilgan?										
Huvoydo necha yoshdan she’r yoza boshlagan?										
Huvoydo vafot etganda Navoiy necha yosh edi?										
Huvoydoning merosi qanchani tashkil qiladi?										
Huvoydo qanday nomlar bilan ulug‘langan?										

So‘rovnoma natijalari tahlil qilingach, Huvoydo hayotining xronologik jadvali aks etgan quyidagi jadval namoyish etiladi. Buning uchun 5 daqiqa vaqt ajratiladi.

Javoblar tekshirilgach, eng ko‘p ma’lumot yozgan o‘quvchilarga rag‘bat kartochkalari beriladi.


O‘quvchilarning har biri bilan o‘tilgan mavzular yuzasidan savol-javob o‘tkazish maqsadida savolli kartochkalar tarqatiladi va 2 daqiqa vaqt beriladi.






Huvaydo va Uvaysiy ijodini o‘rgatishda venn diagrammasi.


Venn diagrammasi. Bu ikki yoki undan ortiq tushunchalarning o‘ziga xos va umumiy jihatlarini tahlil qilish va umumlashtirishda qo‘llaniladi. Bunda o‘ng va chap doiralarga tushunchalarning o‘ziga xos jihatlari, doiralarning kesishgan sohasiga esa ular uchun umumiy bo‘lgan jihatlar yoziladi. Masalan, “nazariy mashg‘ulot” tushunchalari uchun Venn diagrammasi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

Venn diagrammasi





**Huvaydaning asarining
yaratilish tarixi haqida
nimalarni bilasiz?**



**Huvayda haqida
qanday fikrlar bor?**

III Yangi mavzu bayoni

O'quvchilarga shu vaqt mabaynida Uvaysiy hayoti va ijodini o'rgatishimiz kerak. Eng avvalo shoira haqida ma'lumotlar berishimiz lozim. Har bir shoir taxallusining o'z ma'nosi bor. Taxallus bu shunchaki bir so'z emas, balki adibning ijoddan ko'zlagan maqsadini belgilovchi timsol hamdir deb taxallus haqida ma'lumot berganimiz. Navoiy - haq va haqiqat, adolat yo'lida navo qiluvchi, Maxmur - ilohiy ishqdan mast bo'lgan darvesh va hokazo. Xo'sh, unda Uvaysiy taxallusining ma'nosi nima? Deb o'quvchilarga shu o'rinda savol beramiz va o'quvchilarga tushuntiramiz. O'tmishda Uvays Qaraniy ismli valiy zot o'tgan. Uning Muhammad alayhissalomga bo'lgan muhabbati shu kungacha insonlar orasida doston bo'lib kelmoqda. U payg'ambarimiz bilan bir zamonda, bir-birlaridan un-chalik uzoq bo'lmagan joyda yashagan bo'lsa-da, ularga ko'rishish nasib etmagan. Bu zot Muhammad alayhissalomga hali payg'ambarlik berilmay turib, uning qachon va qayerdan chiqishini bilmagan holda Rasulullohning kelishini intizorlik bilan kutgan. O'zi hali ko'rmagan, daragini faqat ilohiy kitoblardan eshitgan payg'ambarga g'oyibona muhabbat qo'yadi. Muhammad alayhissalom ham o'ziga zamondosh sahobalari hamda ummatlari ichida ko'rmay turib, Uvaysy Qaraniy hazratlariga alohida ikrom va e'zoz bilan mehr qo'yganlar. Shundan Islom olamida payg'ambarimizning (garchi u zot o'tib ketgan bo'lsalarda) g'oyibona nazari - nigohiga sazovor bo'lish ilinjida «uvaysiylik» yo'li paydo bo'lgan. Ehtimol, shoira Uvaysiy ham o'z taxallusini qaysidir bir buyuk zotga bo'lgan g'oyibona uvayslik munosabati tufayli tanlagandir deb o'ylaymiz. Mana, shoira Jahon Otin taxallusining ma'nosini ham o'quvchilar bilib olgandan so'ng. Shoiraning hayoti haqida o'quvchilarga ma'lumot beramiz. Shoira Marg'ilon shahrida ziyoli oilada dunyoga keldi. Otasi o'zbek va tojik tillarida she'rlar yozgan ijodkor, onasi ham fozila ayol bo'lgan. Hofiz unvoni bilan el ichida tanilgan akasi Oxunjon ashula aytar, musiqadan yaxshigina xabardor edi. Badiiy did yuqori bo'lgan ma'rifatli oilada voyaga yetgan Jahon Otin yoshligidan she'r mashq qildi va tez orada «Uvaysiy» taxallusi bilan shuhrat topdi. Shoiraning turmush o'rtog'i Hojixon erta vafot etib, qizi Quyoshxon, o'g'li Muhammadxonni

tarbiyalab voyaga yetkazish yakka o'zining zimmasida qoladi. U maktabdorlik qiladi, ijod bilan shug'ullanadi. Farzandlari ham she'rlar yozgan. Uvaysiy hayoti va ijodiy faoliyatining bir qismi malika va shoira Nodirabegim iltifoti tufayli xon saroyida kechadi. Bu yerdagi qizg'in ijod uchun kerakli adabiy muhit, farzandlarining yashashi va tarbiyasi uchun qulay sharoit shoiraning bir necha yillar osoyishta hayotini ta'minladi. 1822-yilda Nodirabegimning turmush o'rtog' Amir Umarxon vafot etgach, Uvaysiy uchun ham tashvishli va qayg'uli kunlar boshlanadi. Otasining o'rniga taxtga o'tirgan Muhammad Alixon unga yaxshi munosabatda bo'lmadi. Boz ustiga, o'g'li Muhammadxon ham sarbozlikka olinib, Qashqar uchun olib borilayotgan urushga jo'natildi. Oilaviy turmushi baxtsiz kechgan qizi Quyoshxon kasallanib, o'ttiz yoshida vafot etadi. Undan Bibi Xadicha ismli qizcha qoladi. Buxoro amiri Nasrullo 1842-yilda Qo'qonni bosib olib, Nodirabegimni, uning o'g'li va nabiralarini qatl ettiradi. Shundan so'ng Uvaysiy ham ona shahri Marg'ilonga qaytadi va taxminan 1845-yilda vafot etadi. O'quvchilarga shoiraning hayoti haqida tushuntirib bo'lgach, uning ijodini ham tushuntiramiz.

Shoira mumtoz adabiyotning g'azal, muxammas, musaddas, murabba', chiston hamda doston kabi janrlarida qalam tebratgan va uning she'rlari asosan ishqiy mavzuda bitilgan. Ularda o'zining Yaratuvchisiga intiqlik bilan intilayotgan solik banda, Payg'ambar alayhissalomga oshiq ummat, ustozlarga muhabbatli shogird sifatida tuyg'ularini izhor etadi. Shuningdek, insonning insonga sevgisini tarannum etuvchi g'azallari ham talaygina. Uvaysiyning «Uvaysiyman», «Sog'indim» kabi g'azallari hasbi hol tarzida yozilganligini o'quvchilarga o'rgatib. Ularda shoira hayotining ayrim lavhalari, taqdiri uchun muhim bo'lgan hayotiy holatlar bayon etilgan g'azallarni tushuntirish. Masalan, «Sog'indim» radifli g'azalda farzandidan judo onaning iztiroblari, sog'inchini aks ettirgan buni o'quvchilarga ta'sirli qilib o'qib o'quvchilarni jon-joniga singdirish kerak. Uvaysiy chistonnavis sifatida ham o'z mahoratini namoyon etganligini ham aytib o'tish lozim. Ayniqsa, «Anor» chistoni yaratilgandan buyon she'riyat ixlosmandlari e'tiborini qozonib kelmoqda. Ushbu «Anor» chistonini o'quvchilarga o'qitib

ushbu chistondan nimani tushunganini so‘rab so‘ng o‘zi aniq qilib o‘qituvchining o‘zi tushuntirib beradi.

Darsimizning birinchi soatida o‘quvchilarga biz Uvaysiy hayoti va ijodi haqidagi ma’lumotlarni berar ekanmiz, bu orqali shoironing ibratli hayotini shu sinf o‘quvchilar uchun o‘rnak qilib ko‘rsatamiz, va o‘quvchilarga kelajakda Uvaysiyning asarlarini tahlil qilish, keying darslarda amalga oshirishimiz lozim bo‘lgan ishlar haqida muayyan tasavvur uyg‘atishga harakat qilamiz. Demak, Uvaysiy hayoti va ijodidagi asosiy va muhim sanalar, uni hayotidagi ijod yo‘lida turmush mashaqqatlarini yengish yo‘lidagi, qiyinchiliklarga sabir qonoat bilan bardosh qila olgan ayol timsoli sifatida siymosi ham, o‘quvchi ko‘zi oldida yorqin jonlantiradi. Bu jarayonda biz nafaqat Uvaysiy asarlari, balki shoironing partiriti, kitoblariga ham murojat qilamiz. Ular orqali ham o‘quvchilarni tasavvurida muayyan fikr mulohazani uyg‘atish bilan bir qatorda, o‘quvchilarda ma’lum bir ko‘nikmalarni hosil qilishga harakat qilamiz. Uvaysiyning shu sinf darsligida berilgan “Uvaysiyman” nomli g‘azalini tahlil qilar ekanmiz, avvalo, biz o‘quvchi diqqat e’tiborini g‘azalda qo‘llanilgan tushunilishi qiyin bo‘lgan arabiy va forsiy tildagi so‘zlar lug‘atiga qaratamiz. Shu o‘rinda o‘quvchilarda lug‘at bilan ishlash ko‘nikmalarini ham shakillantirishimiz lozim. Demak, biz ushbu she’rdagi tushunilishi qiyin bo‘lgan lug‘atini doskaga yozamiz va o‘quvchilarni har biriga yozib olishini, kiyingi darsda ularni yod olib kelishlarini tafsiya qilamiz. O‘quvchilar mana shu so‘zlarni o‘rganish orqali ham, shoira she’rlari mohiyatini anglashga, uni mazmuniga singdirilgan ma’no qatlamlarini, nafaqat zohiriy ma’no balki botiniy ma’no qatlamlarini anglaydi, tahlil qila oladi va Uvaysiyning ruhiy kichinmalarini muayyan darajada tushuna olishiga erishish bu darsning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan

turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Shu metodlardan biri "Aqliy hujum" metodini 2-kurs akademik litsey o'quvchilarda qo'llab ko'ramiz.

III Yangi mavzuni mustahkamlash.

"Xotira mashqi"

1. Jahon Otin tavallud topgan oiladagi muhit va uning yosh ijodkor kamolotiga ta'siri haqida fikr yuriting.
2. Uvaysiyning Mohlaroim Nodira bilan yaqinlashuvi va uning homiyligidagi hayoti qanday kechdi?
3. Uvaysiy farzandlarining foje taqdiriga nimalar sabab bo'ldi?
4. Uvaysiy va Nodira hayotining Umarxon hamda Muhammadalixonning davrlarini taqqoslab mulohaza qiling.

Topshiriq.

Chistonlar: o'quvchilarga Uvaysiy chistonlaridan tarqatiladi o'quvchilar javob topishadilar

Ul gumbazdur eshigi tuynugidin yo'q nishon
Necha gulgunpush qizlar manzil aylabdur makon
Sindurub gumbazni, qizlar holidan olsam xabar,
Yuzlarida parda tortig'lik bagri qon.

Topshiriq o'qituvchi tomonidan Uvaysiy she'rini kompyuter orqali havola etadi.


Guruhlar shoiraning she'rlari yoddan ifodali aytib berishadi.

Bugun ey do'stlar, farzandi jonimni sog'indim,

Gado bo'lsam ne ayb ul shohi davronimni sog'indim.

Musofirman, g'aribman bekasi ham benavodurman,

Vujudim darda to'ldi emdi davronimni sog'indim.



“Aqliy hujum” metodi

1-guruh:

Shoira qaysi janrda ijod qilgan?

(g'azal, murabba, muxammas, musaddas, chiston va doston)

2-guruh:

Uvaysiy she'rlarining nomlarini ayting (“Uvaysiyman”, ”Dog' o'ldi, dog' o'ldi”, ”Sog'indim”)

1-guruh:

Shoiraning “Sog'indim” g'azalida nima aks ettirilgan?

(Farzand sog'inchi)

2-guruh:

“Uvaysiyman” radifli g‘azalida radif nechta ma`noda kelgan (ikkita)

1-guruh:

Mumtoz adabiyotdagi she’riy topishmoq nima? (Chiston)

2-guruh:

Chiston hajmi qancha bo‘ladi?

(Hajmi cheklanmagan)

1-guruh:

“Uyimizning ziynati, ko‘z ravshan” misrasi orqali nima aks ettirilgan? (Kecha – yu kunduz o‘g‘lini nomini takrorlab, uni o‘ylashi aks ettirilgan)

2-guruh: guruh o‘quvchilari ha ushbu usul tarzda o‘rgatishimiz mumkin.

“Masuvo Uvaysiyman” so‘zining ma’nosi nima?

(Dunyodan uzilgan Uvaysiyman)

1-guruh:

“Kavokib” so‘zining ma’nosi nima? (Yulduzlar)

2-guruh:

“Beriyozat” so‘zining ma’nosi nima?

(Mashaqatsiz, azobsiz, qiynoqsiz)

1-guruh:

“Benavo” so‘zining ma’nosi nima?

(sho‘rpehana, baxtsiz)

2- guruh:

“Ro‘z-shab” so‘zining ma’nosi nima?

(Kun –tun, erta - kech)

Shunday usul va metodlardan foydalanib, har bir bolani jalb qilamiz. Bu metod orqali yangi mavzuni o‘rgatishimiz oson bo‘ladi.

Darsning bu bosqichida “BBB” metodi o‘tkaziladi.

B-B-B jadvali

Ushbu metod orqali Uvaysiy haqida ma’lumotlarni o‘qituvchi savol tarzda beradi, o‘quvchilar jadvalda berilgan Bilaman, Bilmoqchiman, Bilib oldim so‘zlar orqali javob berishadi.

Savollar:

1. She’rdan shoira tarjimayi holi bilan bog‘liq jihatlarni toping. G‘azalda ifodalangan yetakchi fikr va tuyg‘uni aniqlang.
2. G‘azaldagi «gado», «shohi davron» timsollari shoiraning intizorlik tuyg‘ularini ifodalashga qay darajada xizmat qiladi?
3. Shoiraning: «Vujudim dardga to‘ldi, emdi darmonimni sog‘indim» tarzidagi anduhida o‘zbek onalariga xos si-fatlarning qanday ifodalanganligini ko‘rsating.
4. G‘azaldagi: «Tilimning zikri-yu, ko‘nglimni fikri, yaxshi farzandim, Azizim, yolg‘izim, davlatli sultonimni sog‘indim» baytida sog‘inch iskanjasidagi ayol tuyg‘ularini ifodalashda shoira mahoratini ko‘rsatuvchi jihatlarni toping

Bilaman	Bilmoqchiman	Bilib oldim

O‘quvchilar ushbu jadvalni to‘ldiradi.

Minnatdor avlodingizning ta’zim va tashakkurini qabul etgaysiz, asrang uzoq, ammo qalban zamondosh ulug‘ INSON!

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar! Uvaysiy hayoti va ijodi o'rgandinglar. Uvaysiy ijodi ummon bo'lsa, darsimizda bir qatrasining jilvasidan bahramand bo'lish baxtiga muyassar bo'ldik.

III. Baholash va rag'batlantirish. Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi va baholanadi.

IV. Uyga vazifa. Uvaysiy g'azallari va chistonlarini yod olish, ularni tahlil qilish.

X U L O S A

Istiqlol yillarida ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotning barcha jabhalarida bo'lgani kabi ta'lim sohasida ham tub islohatlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda ko'rilayotgan samarali chora-tadbirlar natijasida ta'lim tizimi rivojlanishning o'ziga xos yangi yo'lga kirmoqda. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida hamda shu muhim huquqiy-me'yoriy hujjatlar asosidagi "Davlat ta'lim standarti"da bu o'zgarishlarning mohiyati aniq belgilab qo'yilgan.

Jahon Otin Uvaysiy o'zbek adabiyot tarixida kata o'rin tutadigan yuksak istedod sohiblaridan biridir. Uning lirik she'r va dostonlari o'zbek adabiyoti tarixida ayol ruhiy kechinmalarini ifodalashi jihatidan ahamiyatlidir.

Shoiraning hayoti va ijodi umumta'lim maktablarining 7-sinfida akademik litseyining 2-bosqichida o'rganiladi. Uvaysiy hayoti va ijodini o'rganishda bugungi kunda ta'limda keng qo'llanadigan interfaol metodlarning o'rni kattadir.

Interfaol metodlar shoira hayoti va ijodini o'rganishni osonlashtiradi. Lirik qahramon ruhiy kechinmalari mashuqaning turf xil sifatlarini yoritishda qo'l keladi. Ish mavzuni qamrab olgan reja asosida kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tuzilgan bo'lib, shakl va mazmun birligi tamoyili asosida fikrlar ketma-ketligiga rioya qilgan holda yozilgan. Har bir bob yuzasidan o'rtaga tashlangan muammoni qamrab olgan to'g'ri xulosalar chiqarilib, shu asosda umumiy xulosalar ish so'ngida ketiriladi va bu ish yuzasidan ishonarli amaliy tavsiyalarni taqdim etishga olib keladi. Fikrlarni dalillash uchun foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati ham xilma-xil bo'lib, ish mazmunini to'la ochishga xizmat qilgan, kerakli o'rinlarda ulardan unumli foydalanilgan, murojaat etilgan barcha ko'chirmalar talabning fikrlarini dalillashga xizmat qilgan, tadqiqotchi ko'chirmalarga shaxsiy qarashlarini ham bildirildi.

Shoira g'azallaridan na'munalar umumta'lim maktablari va akademik darsliklarida keltirilgan.

Bitiruv ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi; ilmiy izlanishning maqsad va vazifalari; tadqiqot predmeti va ob'ekti; ishning ilmiy yangiligi, tadqiqotning amaliy ahamiyati maqsadga muvofiq tarzda talablar darajasida yoritishga yetarlicha harakat qilindi.

Bitiruv ishi qismlarining shakliy tuzilishi va mazmuni talablar darajasida bo'lib, ravon til (nutq) bilan mantiqiy izchillik asosida yozilgan, keltirilgan fikrlar

muallif tomonidan imkon qadar dalillangan, nazariy ma'lumotlar amaliy ishlar bayoni asosda yoritilgan. Har qanday yirik hajmli ishda bo'lgani kabi bitiruv malakaviy ishida ayrim kamchiliklar uchraydi. Ba'zi o'rinlarda yosh tadqiqotchi shoirlar ijodidan keltirilgan she'riy namunalarni umumta'lim maktablarida o'qitilishi bilan bog'liq fikrlarni ifodalashdan ko'ra baytlar mazmunini bayon qilish bilangina cheklanadi. Bizningcha, umumta'lim maktablarining 7- sinfi dastur va darsliklarining bir-biriga nomuvofiq o'rinlari kengroq izohlansa maqsadga muvofiq bo'lardi. Ammo bunday kamchiliklar ishning umumiy qimmatiga unchalik ta'sir etmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Xalq so‘zi. // 2016 yil 16 dekabr.
2. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
3. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. Toshkent: O‘zbekiston, 2015. – B.302.
4. Каримов И. А. Баркамол авлод орзуси. Тошкент: Шарқ, 2000.
5. Каримов И. А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б. 440.
6. Adabiyot (majmua). Akademik litseylarning 2-bosqichi o‘quvchilari uchun / To‘xliyev B., Mirsamiqova R., Ametova O. – T.: Bayoz, 2014. – B.3-141
7. Адизова И. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. –Тошкент:Фан, 1991.
8. Алишер Навоий. Бадоеъ ул- васат. МАТ. 20 жилдлик. 5- жилд. .–Тошкент: Фан, 1990.
9. Амирий. Девон. –Тошкент: Фан, 1972.
- 10.Атоуллоҳ Махмуд Ҳусайний. Бадойи ус-санойи. –Тошкент:Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.
- 11.Бобоев Т. Шеър илми таълими. –Тошкент: Ўқитувчи, 1996.
- 12.Жалолов Т. Ўзбек шоиралари.–Тошкент: Фан, 1980.
- 13.Иброҳимова Э. Увайсий. –Тошкент: Фан, 1963.
- 14.Исҳоқов Ё. Навоий ва ижод сабоқлари. –Тошкент: Фан, 1981.
- 15.Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. –Тошкент: Фан, 1983.
- 16.Исҳоқов. Тарду акслар. Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент: 1972, 2-сон.
- 17.Қаюмов А. Қўқон адабий муҳити. Асарлар. 10 жилдлик. 5- жилд..
- 18.Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. –Тошкент: Фан, 1976.
- 19.Навоий А. Мажолис ун-нафоис. Асарлар. 15 жилдлик. 15-жилд. –Тошкент: 1968.
- 20.Носиров О ва бошқалар. Ўзбек классик шеърляти жанрлари. –Тошкент: Ўқитувчи 1979.

21. Орзибеков Р. Лирикада кичик жанрлар. –Тошкент: Фан, 1976.
22. Орзибеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат. –Тошкент: Фан, 1976.
23. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1979.
24. –Тошкент: Мумтоз сўз, 2010.
25. Увайсий шеърятидан.. –Тошкент: 1980.
26. Увайсий. Девон–Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1963.
27. Увайсий. Кўнгил гулзори.–Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984.
28. Увайсий. Нодира. Ўзбек шоирлари баёзи.–Тошкент: Фан, 1993.
29. Ҳаққулов И. Увайсий шеърятини. –Тошкент: Фан, 1992.
30. Ҳасанов Б. Навоий асарлари бўйича қисқача луғат. –Тошкент: Фан, 1993.
31. Ҳожиаҳмедов А. Шеърини санъатлар ва мумтоз қофия. –Тошкент: Шарқ, 1948

IV. INTERNET MA'LUMOTLARI:

www.ziyonet.uz

<http://www.natlib.uz/>

<http://library.samdu.uz/>

<http://www.faa.uz/>

<http://www.literature.uz/>